



MADAMINOV BAXODIR SHARIFJONOVICH

# JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**MADAMINOV BAXODIR SHARIFJONOVICH**

**JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA  
METODIKASI**

**511200 – Jismoniy madaniyat, 5111700 – Boshlang'ich ta'lif va sport tarbiyaviy ish  
(O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, institutitlar va jismoniy  
madaniyat yo'nalish magistratura, bakalavr xamda maktabgacha va boshlang'ich ta'lif  
fakulteti talabalari uchun)**

**O'QUV QO'LLANMA**

**Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi: o'quv qo'llanma**  
/ Madaminov Baxodir Sharifjonovich. – Namangan, 2024, 148 bet.

**Annotatsiya.** Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatining amaliyoti bo'yicha yozilgan ushbu o'quv qo'llanma bo'lajak yosh jismoniy tarbiya va sport mutaxassislariga pedagogik faoliyatlarida egallagan nazariy bilimlarini amaliyotga jalb qilishda yordam beradi.

**Аннотация.** Настоящее учебное пособие, написанное на практике по теории и методике физического воспитания, поможет будущим юным специалистам физической культуры и спорта применить на практике теоретические знания, полученные в педагогической деятельности.

**Annotation.** Hoc manuale, quod in theoria et methodologia educationis physicae in praxi conscriptum est, adiuvit ut iuvenes speciales in cultura corporis et ludis exercvant scientiam theoricam quae in actione paedagogica obtinet.

**Muallif:** Madaminov B.Sh. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Taqrizchilar:** Jumanov O.S. – pedagogika fanlari nomzodi, professor  
Boyboboev B.G'. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
Ismoilov T.U. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 04.03.2024 yildagi 55-sonli buyrugiga asosan № 964379-sonli nashr ruxsatnomasiga ega.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish, jismoniy tarbiya va sport jamoat birlashmalarini tuzish, jismoniy tarbiya va sport birlashmalarini tashkil etishda ishtirok etish huquqiga ega. Jismoniy tarbiya va sport harakatini boshqarish. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jismoniy tarbiya va sport sohasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga va erkin hisoblanadilar.

O'zbekiston Respublikasida mustaqil huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurish yo'lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yangidan kashf qilishga, uning o'zligini anglashda imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga va ma'naviy intellektual, aqliy-amaliy rivojlanish uchun yangi shart-sharoitlar yaratib beradi. Bu o'z navbatida insoniyat yaratgan ma'naviy-ilmiy boyliklariga, insonning o'ziga yangicha munosabat yondashuvini yuzaga keltiradi. Bunday yangicha yondashishlar jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati fanining obyekti va predmetini kengaytiradi.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda adolatli demokratik jamiyat bunyod etish bosh maqsad qilib belgilandi va bu maqsad sari izchil qadamlar qo'yildi. Bunda inson manfaatlari va haq-huquqlarini to'liq hisobga oladigan, uning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan eng adolatli ijtimoiy makon bo'lmish fuqarolik jamiyatini qurish borasida ham muhim natijalarga erishildi. Jamiatda sog'lom turmush tarzini yanada shakllantirish, aholi Salomatligini mustahkamlash, jismoniy sog'lom va ma'naviy boy yosh avlodni tarbiyalash, fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug'ullanishga keng jalb etilishini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan faol islo hatchilik siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati fani faqat ta'lim-tarbiya jarayonini nazariy, uslubik-amaliy jihatdan ta'minlovchi fan emas, balki umumiyl tomonlari bilan komil inson shakllanishini, rivojlanishni ta'minlovchi keng sohalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun kadrlar

tayyorlash milliy dasturidagi milliy ta'lim modelida shaxsga kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti sifatida qaraladi. Ma'lumki, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati fani tarbiya hamda ta'limning inson rivoji, shaxs kamoli va mutaxasis shakllanishida ta'lim tizimi o'z ichiga olmaydigan etnik, antropologik, genetik, tarixiylik, mustaqillik, tabiiy-ekologik, intuitiv, ruhiy-hissiy bilish, rivojlanish, komillik omillariga ham suyanadi. Bundan tashqari, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati fani oldiga yangicha fikrlesh, yangicha tafakkur, milliy mafquraning keng qamrovli sifatlarini shakllantirish vazifalari qo'yildi.

Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati ta'lim-tarbiyada, hayot jarayonining hamma sohalarini, jabhalarini qamrab olmasa, u o'zining komil inson tarbiyasidagi juda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan asosiy ijtimoiy fan mavqeyini egallay olmagan bo'ladi. Shuning uchun ham yangi ta'lim konsepsiyasida va mutaxasislar tayyorlash milliy dasturida ta'lim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalish qilib belgilandi.

Shu sababli ushbu o'quv qo'llanma talabalar bilan auditoriyada mustaqil ishslash, bilimni aniqlashda joriy bosqichli va yakuniy nazorat o'tkazish, seminarlarga, uslubiy mashg'ulotlarga, sinov va imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan. Talabalarning ish jarayonidagi faoliyati, asosan, mustaqil ishslashga qaratilgan (o'qituvchi faqat tashkiliy va maslahatchi vazifasini bajaradi) bo'lib, dars yakunida son va sifat jihatidan tahlil qiladi va baholaydi.

## I-QISM. JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA USLUBIYATI

### 1-mavzu: Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatiga umumiy tavsif

#### Nazorat testlari

1. Quyidagilardan qaysi biri o'rgatish, jismoniy sifatlarni tarbiyalash, maxsus bilimlarni o'z ichiga oladi:
  - a) jismoniy madaniyat;
  - b) jismoniy tayyorgarlik;
  - v) jismoniy tarbiya;
  - g) jismoniy ta'lim;
  - d) jismoniy kamolot.
2. Jismoniy tayyorgarlik natijasi quyidagilarning qaysi birida aniq ko'rsatilgan:
  - a) shaxsning jismoniy rivojlanish;
  - b) jismoniy tarbiya;
  - v) jismoniy tayyorgarlik;
  - g) jismoniy kamolot;
  - d) jismoniy madaniyat.
3. Jismoniy madaniyat atamasini aniq aks ettiruvchi tushunchani ko'rsating:
  - a) jismoniy madaniyat – jamiyat va shaxs madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, uning maxsus mazmunining negizi, inson faoliyatidan aniq foydalanishni tashkil qilsa, amaliyotda jismoniy tayyorgarlik, jismoniy holat va rivojlanishni optimal ravishda ushlangani demakdir;
  - b) insonning jismoniy sifatlarini rivojlantirish ko'rsatkichlari;
  - v) insonning jismoniy holatini optimallashtirishga va shu harakatning natijalariga yo'naltirilgan faoliyatidir;
  - g) xususiy musobaqalashish faoliyati bo'lib, unga maxsus tayyorgarlik hamda shu faoliyat asosida kelib chiqadigan o'ziga xos munosabatlar, normalar va yutuqlarning yig'indisidir;
  - d) jismoniy garmonik rivojlanishning optimal o'lchami, har tomonlama ijtimoiy tayyorgarlik.

4. «Jismoniy tarbiya»ning aniq ko‘rsatuvchi atamasini ko‘rsating:

a) jamiyatda jismoniy tarbiya madaniyatini rivojlantirish va foydalanimasalalariga yo‘naltirilgan ijtimoiy oqim;

b) o‘z harakatlarini boshqarishni maqsadga muvofiq yo‘llarini o‘zlashtirish hayotiy zarur bo‘lgan harakat, ko‘nikma va malakalarini egallash;

v) tarbiya turi inson jismoniy sifatlarini tarbiyalash va harakatlarga o‘rgatishga qaratilgan pedagogik jarayondir;

g) jismoniy rivojlanishning optimal o‘lchovi va har tomonlama ijtimoiy tayyorgarlik;

d) jismoniy tarbiya.

5. Jismoniy ta’lim tushunchasi mazmunining asosini nima tashkil etadi?

a) hayotiy zarur harakat ko‘nikma malakalari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni egallash;

b) maxsus jismoniy tarbiya bilimlarini shakllantirish

v) inson organizmi shakli va funksiyasini garmonik rivojlanish;

g) inson jismoniy sifatlarini rivojlanish va takomillashtirish;

d) jismoniy shakllarni o‘rganish.

6. Jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlariga nimalar kiradi?

a) inson jismoniy sifatlarining rivojlanish ko‘rsatkichlari;

b) jismoniy tayyorgarlik va sport natijalarining umumiylar darajasi;

v) sog‘liq ko‘rsatkichi, tana tuzilishi va hayot uchun kerak bo‘lgan harakat ko‘nikma va malakalar fondi;

g) tana tuzilishi, sog‘liq, jismoniy sifatlarini rivojlanish ko‘rsatkichlari;

d) inson fazilatlari.

7. Inson hayotining har bir daqiqasida tananing tabiiy morfofunktional xususiyatlarining yig‘indisini nimalar belgilaydi?

a) jismoniy ta’limot;

b) jismoniy holat;

v) jismoniy rivojlanish;

g) jismoniy tayyorgarlik;

d) jismoniy kamolot.

8. Sport keng ma'noda bu ...

a) xususiy musobaqalashish faoliyati bo'lib yuqori ko'rsatkichlarni namoyish etishga, obyektiv taqqoslangan maxsus moslashtirishga va insonning ayrim imkoniyatlarini baholashga yo'naltirilgan;

b) ishning jismoniy holatini optimallashtirishga va shu harakatning natijalariga yo'naltirilgan faoliyatdir;

v) xususiy musobaqalashish faoliyati bo'lib, tarixiy jismoniy madaniyat sohasida musobaqa turiga asoslangan;

g) xususiy musobaqalashish faoliyati bo'lib, unga maxsus tayyorgarlik hamda shu faoliyat asosida kelib chiqadigan o'ziga xos munosabatlar, normalar va yutuqlarning yig'indisidir;

d) sport bu yakkakurash turlariga kiradi.

9. Ko'rsatilgan qaysi tushuncha harakatga o'rgatish va jismoniy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik jarayonni bildiradi?

a) sport;

b) jismoniy rivojlanish;

v) jismoniy madaniyat;

g) jismoniy tarbiya;

d) yoshlar sporti.

10. Jismoniy tarbiya nazariyasi hozirgi kunda necha bo'limdan iborat?

a) 2 ta;

b) 5 ta;

v) 3 ta;

g) 4 ta;

d) 6 ta.

Nazorat testlari bo'yicha tanlagan javoblariningizni jadvalga (javoblar varaqasiga) yozing.

1-jadval

Savollar raqami	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javoblar raqami										

## Mustaqil ishlash uchun vazifalar

1. Jadvalning 2-ustunida jismoniy tarbiya nazariyasining asosiy atamalari keltirilgan, uchinchisida ularning mazmuni ixtiyoriy tartibda berilgan. Uchinchi ustundagi tog'ri javoblarni topib, har bir atama to'g'risidagi 1-ustunga tartib raqamini yozing.

**2-jadval**

Javob tartib raqami	Atama (tushuncha)	Mazmuni
	Jismoniy ta'lim	1. Insonning idval jismoniy tayyorgarligini tarixiy belgilangan hamda hayot talabiga optimal ravishda javob bera oladigan
	Jismoniy sifatlarni tarbiyalash	2. Individuum hayoti davomida uning organizmining ulg'ayish, moslanish va keyingi o'zgarishlari, hamda ularga asoslangan jismoniy sifat va qobiliyatlarning morfofunksional xususiyatlari jarayoni
	Jismoniy tayyorgarlik	3. Musobaqa faoliyati, unga maxsus tayyorgarlik, shuningdek, insonlararo munosabatlar hamda ularga xos me'yorlar
	Jismoniy rivojlanish	4. Insonda harakat bilim va ko'nikmalarning shakllanish jarayoni, shuningdek, maxsus jismoniy tarbiya bilimlarini keyingi avlodga yetkazish
	Jismoniy kamolot	5. Jismoniy sifatlarni tarbiyalash va hayoti uchun muxim harakatlarni egallash jarayoni
	Sport	6. Insonning jismoniy sifatlari rivojlanishga me'yorlangan funksional yuklamalar vositasi-da aniq maqsadli ta'sir ko'rsatish

2. Zamонавиј јисмониј камолотга ерішган кишингең керакли аниқ ко'рсақчиларини юзіб беринг.  
 3. Insonning jismoniy rivojlanish jarayoni nima bilan aniqlanadi? Nimaga bo'y sunish qonunlarini yozing.

## **2-mavzu: O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya tizimi.**

### **Nazorat testlari**

**1. Jismoniy tarbiya tizimi atamasini qaysi tushuncha aniq aks ettiradi?**

a) jismoniy tarbiya tizimi jismoniy tarbiyaning g'oyaviy, ilmiy uslubiy negizlari birligidan, shuningdek, Respublika fuqarolarining jismoniy tarbiyasini amalga oshiradigan va nazorat qiladigan tashkilotlar va muassasalarining birligidan iboratdir;

b) jismoniy tarbiya tizimi tashkil etilgan ijtimoiy oqim bo'lib, jismoniy madaniyatni jamiyatning maqsadlariga muvofiq rejalashtirish va tatbiq etishga yo'naltirilgan;

v) jamiyatda jismoniy tarbiya madaniyatini rivojlantirish va foydalanish maqsadlariga yo'naltirilgan ijtimoiy oqim;

g) jamiyatning yashash qonuni va bilimni egallashiga asoslangan holda, fikrlash qobilyati orqali borliqni aniqlash;

d) inson jismoniy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan.

**2. Jismoniy tarbiya, majburiy davlat jismoniy tarbiya va sport dasturi orqali amalga oshiriladi. Bu dasturlar nimalarni o'z ichiga olgan?**

a) razryad normativlari va sport turlari bo'yicha talablar;

b) jismoniy mashg'ulotlarni uslubiyati;

v) jismoniy tarbiya tizimining umumiy ijtimoiy pedagogik tamoyillarini;

g) ilmiy asoslangan jismoniy tarbiyaning vazifalari va vositalarini o'rGANISH uchun kerakli ko'nikma va malakalar majmuasini, uning norma va talablar ro'yxatini.

**3. Jadvalga jismoniy tarbiyaning maxsus va umumpedagogik vazifalarini yozing.**

**3-jadval**

Maxsus vazifalar		Umumpedagogik vazifalar
Inson jismoniy rivojlanishni optimallashtirish bo'yicha vazifalar	Maxsus ta'limiy vazifalar	
1.	1.	1.
2.	2.	2.
3.	3.	3.

4. Jadvalga jismoniy tarbiya tizimining ijtimoiy pedagogik tamoyillarini yozing va ularni ochib bering.

**4-jadval**

Jismoniy tarbiya tizimining umumiy tamoyillari	Tamoyilning tavsifi

**3-mavzu: Jismoniy tarbiya jarayonida shaxsning yo'naltirilgan shakllanishi.**

**Nazorat testlari**

1. Metodologik va tashkiliy ko'rsatmaning tarbiyaviy instrumentariyasi uchun tanlash va ta'sir ko'rsatishni aniqlaydigan birlashgan yig'indisi nima deb ataladi?

- a) tarbiya;
- b) tarbiya texnikasi;
- v) tarbiya faoliyatini texnologiyasi;
- g) tarbiyaviy usullar;
- d) tarbiya holatlari.

2. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning ma'lum uslublarini, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarga yoki ularda jismoniy sifatlarni birlashtirib rivojlantirishni tashkil toptirish maqsadida sotsial rollarni aniq bajarish va shaxsiy ahamiyatli maqsad nima deyiladi?

- a) tarbiya vositalari;
- b) tarbiya uslublari;
- v) tarbiya qoidalari;
- g) tarbiya uslublari;
- d) tarbiya belgilari.

3. Uslublar majmuasi, jismoniy tarbiya va sport o'qituvchisi tomonidan ko'rsatish uchun ishlatilgan tarbiyaviy instrumental va kasb amaliy faoliyati nimani bildiradi?

- a) tarbiya strategiyasini;
- b) tarbiya texnikasini;
- v) tarbiya taktikasini;
- g) tarbiya uslublarini;
- d) tarbiya prinsiplarini.

4. Tarbiya uslublari negizini nima tashkil qiladi?

- a) tarbiyaning vosita va uslublari;
- b) ishontirish va ko'rgazmali misol;
- v) tarbiya texnikasni tarbiyalash;
- g) tarbiyaning qoidalari;
- d) tarbiyaning uzluksizligi.

5. Vatanimiz pedagogikasida tarbiyaning bosh usuli quyidagilar- dan qaysi biri:

- a) ishontirish uslubi;
- b) mashq uslubi;
- v) rag'batlantirish uslubi;
- g) jonli misol;
- d) qattiq gapirish.

6. Tarbiyaviy jarayonda «ish» bilan qiziqtirish uchun, ko‘pincha, quyidagi usullarning qaysilaridan foydalaniladi:

- a) shug‘ullanuvchilarga uni qilgan ishining borish bahosi va ahamiyati;
- b) tushuntirish va tasdiqlash;
- v) solishtirish, qiyoslash;
- g) material va ma’naviy;
- d) jerkib berish.

Nazorat testlari bo‘yicha tanlagan javoblariningizni  
jadvalga (javob varaqasiga) yozing

**5-jadval**

Savol raqami	1	2	3	4	5	6
Javob raqami						

**Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Hozirgi zamon sharoitida shaxs tarbiyasining bosh maqsadini ko‘rsating.

2. Jadvalning ikkinchi ustunida tarbiya bilan bog‘liq tushunchalar, uchinchi ustunida ixtiyoriy tartibda ularning ta’riflari berilgan. Uchinchi ustundan har bir atamaning to‘g‘ri ta’rifini topib, javob raqamini jadvalning birinchi ustuniga yozib chiqing.

Javob ta’rif raqami	Atama (tushuncha)	Ta’rif
	Tarbiya keng ma’noda	1. Shaxsnинг сифатларини (еҳтиёjlарини, fe'l-atvoriini, qobiliyatlarini) tarbiyaning maqsad hamda vazifalariga muvofiq holda shakllanishi ta’minlovchi aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati.

	Tarbiya tor ma'noda	2. Ijtimoiy subyektlar tomonidan ularning o'zaro, ijtimoiy muhit hamda tevarak-atrofdagi tabiat bilan keng, har tomonlama o'zaro ta'sirini qamrab oluvchi jamiyat tajribasini o'zlashtirish va faol qo'llash jarayoni.
	Tarbiya jarayoni	3. O'qituvchi (murabbiy) tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish uchun qo'llaydigan barcha vositalar (so'z, suhbatlar, yig'ilishlar, ko'rgazmali qurollar va h.k.)
	«Men va yo'nalish»	4. Insonning o'zi xaqida o'z hayoti va mehnat subyekti sifatida boshidan kechiradigan takrorlanmas, nisbatan barqaror, yetarlicha anglangan tasavvurlar tizimi bo'lib, uning asosida inson boshqalar bilan o'zaro munosabatlari quradi, o'z faoliyati va xulqini namoyish etadi.
	Tarbiya vositalari	6. Tarbiyaning elementlari yoki alohida vositalarini muayyan pedagogik vaziyatga muvofiq ravishda qo'llash bo'yicha harakatlarning xususiy hollari.
	Tarbiya usullari	7. Tarbiya jarayoni subyektlarining aniq maqsadga qaratilgan muntazam o'zaro munosabatlari

3. Tarbiyaning turlarini (tarkibiy qismlari)ni sanang.
4. Tarbiyaning an'anaviy usullarini sanab bering.
5. «Jismoniy tarbiya o'qituvchisi (sport turi bo'yicha murabbiy) ning shaxsiy va ishbilarmonlik sifatlari» jadvalini to'ldiring.

**6-jadval**

Ishbilarmonlik sifatlari	Shaxsiy sifatlari

6. «Jismoniy tarbiya jarayonida ma'naviy tarbiya» jadvalini to'ldiring.

7-jadval

Ma'naviy vazifalari tarbiyaning	Ma'naviy vositalari tarbiya	Ma'naviy usullari tarbiya

7. «Jismonny tarbiya jarayonida aqliy tarbiya» jadvalini to'ldiring.

8-jadval

Aqliy tarbiyaning vazifalari	Aqliy tarbiya vositalari	Aqliy tarbiya usullari

8. «Jismoniy tarbiya jarayonida go'zallik tarbiyasi» jadvalini to'ldiring.

9-jadval

Go'zallik tarbiyaning vazifalari	Go'zallik tarbiya vositalari	Go'zallik tarbiya usullari

9. «Jismoniy tarbiya jarayonida mehnat tarbiyasi» jadvalini to'ldiring.

10-jadval

Mehnat tarbiyaning vazifalari	Mehnat tarbiya vositalari	Mehnat tarbiya usullari

## **4-mavzu: Jismoniy tarbiyaning vosita va usullari**

### **4.1. Jismoniy tarbiyaning vositalari**

#### **Nazorat testlari**

1. Jismoniy tarbiyaning asosiy o‘ziga xos vositalari nima?

- a) jismoniy mashqlar;
- b) gigiyenik faktorlar;
- v) tabiatning sog‘lomlashtirish kuchlari;
- g) trenajerlar.

2. Jismoniy mashqlar mazmuni deganda nima tushuniladi?

- a) harakatning tuzilishi;
- b) harakat faoliyati;
- v) jismoniy yuklama;
- g) jismoniy mashqlarni bajarishda organizmda sodir bo‘ladigan asosiy jarayonlar to‘plami, shuningdek, uning harakat yig‘indisi;
- d) mashqlarning hajmi.

3. Jismoniy mashqlarning shakli quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- a) harakatning ichki va tashqi tuzilishi;
- b) harakat faoliyati qismlarining to‘plami;
- v) harakatning kuch va ritmik harakteristikasi;
- g) jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida insonda sodir bo‘ladigan jarayon va hodisalaming yig‘indisi;
- d) harakat faoliyatini bir darajadagi yig‘indisi.

4. Quyidagilardan qaysi tushuncha inson jismoniy tarbiyasining mehnat va boshqa faoliyatdagi amaliy yo‘nalishi?

- a) jismoniy tayyorgarlik;
- b) jismoniy kamolot;
- v) jismoniy madaniyat;
- g) jismoniy holat.

5. Jismoniy mashqlarning samaradorligi quyidagilarning qaysi biri bilan aniqlanadi?

- a) shakli bilan;
- b) mazmuni bilan;
- v) harakati bilan;
- g) uzoq vaqt bajarilish bilan.

Nazorat testlariga tanlagan varaqasiga	javoblaringizni		jadvalga (javoblar)		
Savol raqami	1	2	3	4	5
Javob raqami					

**Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar.**

1. Qoldirilgan bo'sh joyga quyida berilgan tushunchalar ta'rifini yozing.

Jismoniy mashqlar mazmuni \_\_\_\_\_

Jismoniy mashqlar shakli \_\_\_\_\_

2. Jismoniy mashqlarning sog'lomlashtirishdagi ahamiyati, ta'limiy roli, shaxsga ta'siri jadvalini to'ldiring.

12-jadval

Jismoniy mashqlarning sog'lomlashtirishdagi faoliyati	Jismoniy mashqlarning ta'limiy roli	Jismoniy mashqlarning shaxsga ta'siri

3. «Jismoniy mashqning ichki va tashqi tuzilishi» jadvalini to'ldiring.

13-jadval

Jismoniy mashqning ichki tuzilishi	Jismoniy mashqning tashqi tuzilishi

4. Jadvalga harakatlarning biomexanik xarakteristikasini (tavsifini) yozing.

## 14-jadval

Harakatlarning makoniy tavsifi	Harakatlarning makoniy tavsifi	Harakatlarning makoniy-vaqt tavsifi	Harakatlarning dinamik tavsifi

5. Jismoniy mashqlar bilan navbatdagi shug'ullanishgacha o'tadigan vaqt oraliqlariga bog'liq ravishda jismoniy mashqlar samarasini o'zgarishning quyidagi bosqichlari mavjud deb hisoblaydilar:

- 1) nisbatan normallashuv bosqichi;
- 2) superkompensatorlik bosqichi;
- 3) reduksion bosqich.

Sanab o'tilgan bosqichlarning har biriga xos xususiyatlarni jadvalga yozing.

## 15-jadval

Jismoniy mashqlar samarasini o'zgarishning bosqichlari		
Nisbiy normallashuv bosqichi	Superkompensatorlik bosqichi	Reduksion bosqich

6. Gapda qoldirilgan bo'sh joyni to'ldiring.

Jismoniy tarbiyada jismoniy mashqlarning uzoq muddatli kumulyativ samarasini ta'minlashning asosiy ma'nosi \_\_\_\_\_.

7. «Jismoniy mashqlarni tavsiflash» jadvalini to'ldiring.

## 16-jadval

Jismoniy mashqlarni tasniflash					
Jismoniy tarbiyaning tarixan yuzaga kel-gan tu-shunchalari belgisiga ko'ra	Anatomik belgisiga ko'ra	Alohida jismoniy sifatlarni tarbiyalashga ko'proq yo'naltirilganlik belgisiga ko'ra	Harakat tuzilishi belgisiga	Quvvatning fiziologik zonalari belgisiga ko'ra	Sifat ixtisoslashuvi belgisiga ko'ra

## **4.2. Jismoniy tarbiyaning usullari**

### **Nazorat testlari**

**1. Qat'iy tartiblashtirilgan mashq uslublarining asosini nima tashkil etadi?**

- a) aniq harakat algoritmi;
- b) yuklamani aniq me'yorlash;
- v) oldindan belgilangan qat'iy dastur va yuklama bilan dam olishni me'yorashtirish;
- g) dam olish oraliqlarini aniq belgilash;
- d) harakat ritmi va tempi.

**2. Jismoniy tarbiyaning maxsus uslubiyatiga \_\_\_\_\_ kiradi.**

- a) o'yin usuli;
- b) musobaqa usuli;
- v) ko'rgazmali ta'sir ko'rsatish va tez axborot;
- g) qat'iy tartiblashtirilgan mashq usullari, o'yin, musobaqa, usullari;
- d) texnik ta'minlash usullari.

**3. Quyidagilar ichidan o'yin usuliga xos xususiyatni toping.**

- a) ijodiy izlanish;
- b) o'yining uzoq vaqt davom etilishi;
- v) o'yinda shug'ullanuvchilarni tez-tez almashtirish;
- g) o'yinda har xil sport atamalaridan foydalanish;
- d) o'yinga uslubiy xususiyatlarini boshqa mashqlarga kiritish.

**4. Quyidagilardan qaysi biri maxsus usullarga kiradi?**

- a) so'z usullari (farmoyish, qomatda ko'rsatish) va ko'rgazmali ta'sir ko'rsatish;
- b) qat'iy tartibga tushirilgan mashqlar, o'yin va musobaqa usullari;
- v) tez informatsiya beruvchi usullar;
- g) amaliy, uslub teletasma, mustaqil ishlash uslubi, nazorat;
- d) faol uslublar.

5. Qat’iy tartiblashtirilgan mashq usullari ahamiyati va mohiyati nimada?

- a) harbiy mashq bir vaqtning o‘zida texnika va taktikani takomillashtirishga va jismoniy sifatlarni rivojlanishga qaratiladi;
- b) bular oldindan tuzilgan maqsad va jismoniy tarbiya natijasining bog‘liq zvenosidir;
- v) jismoniy mashg‘ulotni tashkil qilishning qat’iyligi;
- g) har bir mashq qat’iy berilgan shaklda va aniq belgilangan yuklamada bajariladi;
- d) mashqlar ketma-ketligini belgilaydi.

Nazorat testlariga tanlagan javoblariningizni jadvalga  
(javob varaqasiga) yozing

**17-jadval**

Savol raqami	1	2	3	4	5	6
Javob raqami						

#### **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar**

1. Vaqtি aniq belgilangan mashq usullarining pedagogik imkoniyatlari katta. Jismoniy tarbiyada ular ... imkonini beradi.
2. «Harakat faoliyatiga o‘rgatish usullari va ularning ta’rifi» jadvalini to‘ldiring.

**18-jadval**

O‘rgatish usullari	Usullar tavsifi

3. «Jismoniy sifatlarni tarbiyalash usullari va ularning tavsifi» jadvalini to‘ldiring.

**19-jadval**

Tarbiya usullari	Usullar tavsifi

4. «Jismoniy tarbiyada so‘zdan foydalanish usullari (so‘z usullari) va ularning tavsifi» jadvalini to‘ldiring.

**20-jadval**

So‘z usullari	Usullar tavsifi

5. «Jismoniy tarbiyada ko‘rgazmalilikni ta’minlash usullari (ko‘rgazmali usullar) va ularning tavsisi» jadvalini to‘ldiring.

**21-jadval**

Ko‘rgazmali usullar	Usullar tavsifi

**Muammoli vaziyatlari bo‘lgan topshiriqlar**

**Mavzu. «Vaqti qat’iy belgilangan mashq usullariga tavsif berish».**

**1-sonli muammoli vaziyat.** Har qanday harakat faoliyati uch bosqichda o‘zlashtiriladi. Har bir bosqichda shunday usullar ajratib ko‘rsatiladi, ular yordamida mazkur bosqich vazifalari ko‘proq samaradorlik bilan hal qilinadi. Harakat faoliyatlariga o‘rgatishning boshlang‘ich davrida konstruktiv mashq usuli keng qo’llanadi. Ko‘pincha, bilish bilan o‘rgatishning belgilangan bosqichida foydalanish uchun ko‘zda tutilgan muayyan mashqlar tarkibini bilmaslik orasida ziddiyat yuzaga keladi.

**Topshiriq.** Maktab o'quvchilarini kichkina (tennis uchun) *to'pni* uzunlikka uzviy qismlarga ajratish konstruktiv mashq usulini qo'llagan holda uloqtirishga o'rgatishda foydalaniladigan muayyan mashqlar tarkibini aniqlang (tanlangan sport turi misolida bo'lish mumkin).

**2-sonli muammoli vaziyat.** Harakat faoliyatlarini o'rgatish jarayonida 2 ta asosiy umumiy yondashuv e'tirof etiladi:

1) harakatni uzviy qismlarga bo'lib o'rganib, keyin bu qismlarni butun harakatga birlashtirish. Shunday yondashuvga mos usullarni «uzviy qismlarga ajratilgan konstruktiv mashq usullari» deb ataladi;

2) harakatni imkonli boricha butun holda ayrim detallarni tanlab ajratib olib o'rganish. Bunday yondashuvga xos bo'lgan usullarni qisqacha «butun mashq usullari» deb ataladi. Agar o'rganilayotgan harakat (yoki harakatlar yig'indisi) nisbatan mustaqil unsurlarga bo'linsa, bunda ularning xususiyatlari ko'p o'zgarmasa, birinchi yo'l tanlanadi. Agar butunni qismlarga ajratish bilan harakatning mohiyati o'zgarsa, ularning tuzilishi buzilsa, u holda ikkinchi yo'lga murojaat qilinadi. Butunning tuzilishi, odatda, harakatning asosiy mexanizmi o'zlashtirila borgani sayin alohida, nisbatan mustaqil detallar bilan birlashib, butun harakatning bajarilish fonida takomillashadigan faoliyatlarini chiqarib tashlash hisobiga soddallashtiriladi.

**1-topshiriq.** Tanlangan sport turi misolida butun harakat faoliyatini qismlarga ajratish tartibini aniqlang (birinchi yo'l uchun).

**2-topshiriq.** Tanlangan sport turi texnikasining u yoki bu unsurini o'zlashtirish ketma-ketligini aniqlang. Natijani taqdim etish chog'ida javobingiz to'g'riligini asoslab bering.

**3-sonli muammoli vaziyat.** Jismoniy tarbiyada standart mashq va o'zgaruvchan (variantli) mashq usullari mavjud. Bu usullar uzluksiz va intervalli yuklanma rejimida qo'llaniladi. Bu usullarning har biri jismoniy tarbiya jarayonida u yoki bu vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Diqqatingizga quyidagi muammoli vaziyat havola etiladi. Jismoniy mashqlar shartli mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida har bir usul uchun quyidagilarni navbatli bilan shakllantirib olish lozim:

1) standart uzluksiz mashq usulini qo'llash bilan bog'liq vazifa;

- 2) standart intervalli mashq usuli yordamida yechilish mumkin bo'lgan vazifa;
- 3) o'zgaruvchan uzlusiz mashq usulidan foydalanish bilan bog'liq vazifa;
- 4) o'zgaruvchan intervalli mashq usuli yordamida hal etilish mumkin bo'lgan vazifa.

Unsurlarini ko'rsatib berolmaydi. Shunday hollarda o'rganilayotgan harakat haqida ko'rgazmali tasavvur xosil qilish bo'yicha uslubiyat talablari bilan o'qituvchi tomonidan ko'rsatilish imkonи yo'qolish orasida muammoli vaziyat yuzaga keladi. Biz bilamizki, ko'rgazmalilikni bevosita yaratishning bir guruh usullari mavjud.

**Topishiriq.** Bu guruhlarni, shuningdek, mazkur muammoli vaziyatni samarali hal qilish imkonini beradigan muayyan usullar tarkibini aniqlang.

## **5-Mavzu. Jismoniy tarbiyaning umumuslubiy va maxsus tamoyillari**

### **Nazorat testlari**

1. Jismoniy tarbiya tizimida qaysi tamoyillar boshqarish holati sifatida qo'llanishini ko'rsating:
  - a) umumijtimoiy va umumpedagogik tamoyillar;
  - b) umumuslubiy tamoyillar;
  - v) maxsus tamoyillar;
  - g) umumijtmoiy, umumpedagogik, umumuslubiy va maxsus tamoyillar;
  - d) umumiyl tamoyillar.
2. Ko'rsatilgan tamoyillardan qaysi biri umumuslubiy tamoyil bo'lib hisoblanadi:
  - a) onglilik va faollik tamoyili, ko'rgazmalilik tamoyili, tushunarilik va individuallik tamoyili;
  - b) uzlusizlik tamoyili, yuklama va dam olish tizimini almashtirish tamoyili;

v) yuklama dinamikasini moslashtirib tanlash tamoyili, mashg'ulotlarni siklik tuzilish tamoyili;

g) rivojlantirib trenirovka qilib ta'sir ko'rsatishni asta-sekin oshirib borish tamoyili;

d) ilmiy uslubiy tamoyil.

3. Qaysi tamoyil jismoniy yuklamaning hajmi va shiddatini organizmning funksional imkoniyatlarini o'sishiga qarab reja asosida oshirib boradi?

a) ilmiylik tamoyili;

b) tushunarlilik va individuallilik;

v) uzlusizlik tamoyili;

g) rivojlantirib – trenirovka qilib ta'sir ko'rsatishni asta-sekin oshirib borish;

d) mustaqil ish tamoyili.

4. Qaysi bir tamoyil oldingi mashg'ulot iziga keyingi mashg'ulot izini ma'lum tartibda samarasini, tuzilishini hisobga olishni talab qiladi?

a) muntazamlilik;

b) uzlusizlilik;

v) bajara olishlilik;

g) ko'rgazmalilik;

d) faollik tamoyili.

Nazorat testlari uchun tanlagan javoblariningizni jadvalga  
(javoblar varaqasiga) yozing.

**22-jadval**

Savol raqami	1	2	3	4	5
Javob raqami					

### **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar.**

1. Jismoniy tarbiyada onglilik va faoliyti o'stirishga yordam beradigan maxsus uslubiy usullarni sanang.

2. «Jismoniy tarbiyada amaliy ko'rgazmalilikning shakllari va ularning tavsisi (vazifasi va vositalari)» jadvalini to'ldiring.

## Jismoniy tarbiya jarayonida amaliy ko'rgazmalilik

**23-jadval**

Ko'rgazmalilik	Vazifasi	Vositalari

3. «Jismoniy tarbiyada tushunarlilik va individuallashtirish tamoyili va uning tavsifi» jadvalini to'ldiring.

**24-jadval**

Tushunarlilik va individuallashtirish tamoyili	
Vazifasi	Tavsifi

4. Jismoniy tarbiyada yukanmalar va harakatli topshiriqlar belgilanadigan mezonlarni (ko'rsatkichlarni) sanang.

**25-jadval**

Obyektiv ko'rsatkichlar	Subyektiv ko'rsatkichlar

5. «Jismoniy tarbiyaning maxsus tamoyillari va ularning tavsifi» jadvalini to'ldiring.

**26-jadval**

Jismoniy tarbiyaning maxsus tamoyillari	Tamoyillar tavsifi

**Muammoli vaziyatlari bo'lgan topshiriqlar.**

### **5.1. Mavzu: «Jismoniy tarbiya uslubiyati tamoyillari».**

**Muammoli vaziyat.** Umumiy to'g'ri tamoyillarga asoslanganida-gina eng qisqa yo'l bilan maqsadga olib boradi. Pedagogik jarayonning, avvalo, uslubiy qonuniyatlarini ifodalaydigan bir qator tamoyillar borki, xuddi shuning uchun ham ta'lim vazifalarini bajarishda ular eng muhim sanaladi. Bular onglilik va faollik, ko'rgazmalilik va individuallashtirish tamoyillaridir.

**Topshiriq.** Pedagogik jarayonda qandaydir tamoyilni e'tiborga olmaslik natijasida qanday oqibatlar yoki nuqsonlar yuzaga kelishi mumkinligini aniqlashga harakat qilib ko'ring. Ushbu savolga javob izlash va topish mantiqini og'zaki bayon qiling, bunda kasbiy pedagogik jarayondan xayotiy misollar keltiring.

### **6-mavzu. Harakat faoliyatlariga o'rgatish nazariyasи va uslubiyati asoslari**

#### **Nazorat testlari**

##### **1. Harakat ko'nikmasi o'rgatish natijasi sifatida:**

- a) kishi harakat imkoniyatlarini amalga oshirish faoliyatining avtomatlashmagan shaklidir;
- b) harakatning avtomatlashgan shakli;
- v) harakatning berilgan dasturdan farqli shakli;
- g) harakatning bajarilishni variativligi va nostandardligidir.

##### **2. Harakat malakasi o'rgatish natijasi sifatida:**

- a) bu harakatning avtomatlashgan harakatlar asosida yuzaga kelish shaklidir;
- b) bu harakat diqqatni bir joyga jamlagan (konqentraqiya) holda ko'p marotaba bajarishdir;
- v) bu harakat ikkinchi signal tizimining ishtirokisiz avtomatlashuvadir;
- g) bu ko'nikmani malakaga o'tish qonuniyatidir.

3. O'rgatish jarayonining bosqichlari:

- a) tayyorlov, asosiy, yakunlovchi;
- b) zamin yaratish;
- v) dastlabki o'rgatish, chuqurroq o'rgatish, natijaviy tahlil;

g) harakatlarning takomillashuvi natijasida harakatlarni avtomatlasuvining yuzaga kelishi.

4. Harakatning ko'nikma va malaka sifatida shakllanish bosqichlari:

- a) asosiy shakllanishi, yaxlitlanishi, malakani mustahkamlanishi;
- b) harakat bog'lanishi va yaxlitlikning shakllanistsiyasi;
- g) qo'zgalishning irradatsiya va konsentratsiya asosida harakat malakasining shakllanishi.

5. Harakatlarga dastlabki o'rgatishda vosita va uslublar:

- a) nutq ta'siri, sezgi mantiqiy obraz, bevosita ko'rsatish;
- b) nutq ta'siri, bo'laklarga bo'lib konstrukturlash (yig'ish), yordamchi;
- v) nutq ta'siri, ko'rgazmalilik, amaliy, aylanma trenirovka;
- g) nutq ta'siri, ko'rgazmalilik, qat'iy tartiblashtirilgan mashq.

6. Fikrlaydigan harakat vazifalarini birlashtiruvchi harakat tizimi nima deb ataladi?

- a) o'rganish;
- b) o'rgatish;
- v) tarbiyalash;
- g) ta'lim;
- d) bajarish.

7. Harakat ko'nikma va malakalarini o'rgatadigan maxsus bilim beradigan, jismoniy sifatlarni tarbiyalaydigan pedagogik nazorat nima deyiladi?

- a) jismoniy ta'lim;
- b) jismoniy tarbiya;
- v) jismoniy rivojlanish;
- g) jismoniy madaniyat;
- d) jismoniy tayyorgarlik.

8. Yuqori mustahkamlikda texnikani bajarishni boshqarish texnika tavsifini optimallashtirish bilan avtomatlashgan holatga kelishi nima deb ataladi?

- a) harakat ko'nikmasi;
- b) texnik mahorat;
- v) harakatdagi iqtidorlilik;
- g) harakat malakasi;
- d) harakat uyg'unligi.

9. Quyidagi punktlardan: 1. Barqarorlik ekanligi; 2. Bir biriga birlashgan; 3. Turg'un emasligi; 4. Avtomatlashgan; 5. Mushak kuchini miqdoridan ortiq sarflash; 6. Ekonomli – yuqoridagilardan qaysi biri harakat ko'nikmasiga taalluqli.

- a) 2,4;
- b) 1,3,5;
- v) 1,2,3,4,5,6;
- g) 1,2,6;
- d) 3,4,5.

10. Harakat malakasining asosiy farqli ko'rsatkichi bo'lib:

- a) Harakat faoliyatini bajarishning barqaror emasligi;
- b) Harakat faoliyatlarida diqqatni doimiy ravishda bajarish texnikasiga qaratishi;
- v) Harakat faoliyatini boshqarishning avtomatlashganligi;
- g) Tashqi omillarga turg'un emasligi (shamolga qarshi, yomg'ir, mashg'ul joyining yaxshi yoritilmaganligi, zaldagi shovqin).

11. Harakat faoliyatiga o'rgatish jarayoni necha bosqichni o'z ichiga oladi?

- a) uch bosqichni;
- b) to'rt bosqichni;
- v) ikki bosqichni;
- g) besh bosqichni;
- d) bir bosqichni.

12. Harakat texnikasini o'rganishning boshlang'ich bosqichini o'rgatish maqsadi:

- a) o'rganilayotgan harakat texnikasini o'quvchiga tushuntirish va uni bajarishning umumiy tomonlarini bajarishga erishishi;
- b) harakat ko'nikmasining tashkil topishini tugallash;
- v) harakat texnikasini elementlari bo'yicha o'zlashtirish va o'rganilayotgan texnikani mustahkamlash;
- g) o'rganilayotgan harakat texnikasining fazalari va qismlarini barqaror va turg'un bajarishga erishish.

13. Harakat texnikasiga o'rgatish qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) harakatni bajarish uslublari to'grisida boshlang'ich umumiy tushuncha hosil qilish;
- b) harakat texnikasini qismlari bo'yicha bevosita o'rgatish;
- v) harakat texnikasini bir butun holda o'rgatish;
- g) umumiy tayyorgarlik mashqlarini o'rgatish;
- d) qisman mashqlar texnikasiga o'rgatish.

14. Boshlang'ich o'rgatish bosqichidagi bitta mashg'ulot davomida harakat texnikasiga o'rgatgan darsini qaysi qismda amalga oshiriladi:

- a) darsning tayyorgarlik qismida;
- b) dars asosiy qismining boshlanishida;
- v) dars asosiy qismining o'rtaida;
- g) dars asosiy qismining oxirida;
- d) darsning yakunlovchi qismida.

15. O'qituvchi harakat texnikasini o'rgatishga kirishish uchun birinchi navbatda o'rgatish usulini tanlaydi (harakat texnikasi murakkab bo'lmasa):

- a) yaxlitligicha bajarish;
- b) bo'lib-bo'lib bajariladigan konstruktiv mashq uslubi;
- v) har xil o'yin vaqtida (o'yin usuli);
- g) har xil musobaqa vaziyatida «Kim to'g'ri» bajaradi, «Kim aniq» bajaradi, «Kim yaxshi» bajaradi (musobaqa uslubi).

16. Murakkab harakat texnikasi bir mashqni boshlang‘ich o‘rgatish bosqichida qaysi usul bilan o‘rgatish yaxshiroq?

- a) standart intervalli mashq usuli;
- b) bir-biri ustiga tushgan hamda ta’sir ko‘rsatish usuli;
- v) bo‘lib-bo‘lib bajariladigan konstruktiv mashq usuli;
- g) yaxlit mashq usuli;
- d) o‘yin usuli.

17. O‘rgatish jarayonida juda ko‘p xatoga yo‘l qo‘ydi:

- a) harakat texnikasi o‘rganilishining boshlang‘ich bosqichida;
- b) harakat texnikasini o‘rgangan chuqurlashtirilgan bosqichida;
- v) harakat texnikasini o‘rgatishning takomillashtirish bosqichida;
- g) harakat malakalarini har xil tuzilishiga ta’sir etish bosqichida
- d) harakatni o‘rgatish bosqichida.

18. Harakat texnikasi takomillashtirish bosqichining davom etish vaqtisi:

- a) 3 oydan 5 oygacha;
- b) 1 yil;
- v) 2 – 3 yil;
- g) tanlab olingan yo‘nalish bo‘yicha uzoq yillar davomida;
- d) 1,5 – 2 yil.

19. Mashqlarni, uslublar va usullarni tanlangan holda o‘rgatishga harakat ko‘nikma va malakasini egallashga yo‘naltirilgan, shuningdek, takomillashtirishga qaratilishi nima deb yuritiladi?

- a) o‘rgatish uslubiyati;
- b) jismoniy madaniyat;
- v) jismoniy ta’lim;
- g) jismoniy tarbiya;
- d) jismoniy tayyorgarlik.

20. Harakat ta'sirini (jamlangan holda), jismoniy tarbiya vazifasini amalga oshirishga yo'naltirilgan, qonuniyat bo'yicha tashkillashtirilgan bo'lsa nima deb ataladi?

- a) jismoniy mashqlar;
- b) harakatli o'yinlar;
- v) harakat malakalari;
- g) jismoniy kamolot;
- d) jismoniy holat.

21. O'qituvchi va o'quvchining bir-biriga bog'langan uslublarini tartiblashtirish orqali chuqur bilim olishi, ko'nikma va malakaga erishishi nima deb ataladi?

- a) ta'lim usullari;
- b) harakatlar ta'siri;
- v) o'rgatish uslubiyati;
- g) o'rganish va o'rgatish;
- d) harakat malakalari.

22. Harakat malakasiga quyidagilarning qaysi biri mos keladi?

- a) harakat texnikasida ahamiyatsiz xatolar bor;
- b) harakat texnikasida bitta katta xato bor;
- v) harakat avtomatlashgan;
- g) harakatni bir-ikki marta bajaradi, lekin uchinchisida katta xatoga yo'l qo'yadi;
- d) harakat ongi ta'sirida bajariladi.

23. Jismoniy tarbiya va sportda harakat malakalarini ijobiy va salbiy ko'chishi ko'rindi. Malakan ijobiy ko'chirishning asosiy sharoiti nima bo'lib hisoblanadi?

- a) jismoniy tarbiya o'qituvchisining, sport turi bo'yicha trenirov-kasining yuqori darajadagi kasb mahorati;
- b) bosh fazalarini tuzilishida (ayrim qatorlarda) o'xshashlik borligi;
- v) onglilik va faollik tamoyilini to'g'ri olib borishiga;
- g) shug'ullanuvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- d) sportchining malakasiga bog'liq.

Nazorat testlariga tanlagan javoblaringizni jadvalga  
(javoblar varaqasiga) yozib qo'ying.

**27-jadval**

Savol raqami	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Javob raqami												

Savol raqami	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23
Javob raqami											

### Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar.

1. «Harakat faoliyatiga o'rnatish bosqichlari» jadvalini to'ldiring.

**28-jadval**

O'rnatish bosqichlari (nomlanishi)	O'rnatish bosqichi maqsadi	Bosqichning asosiy pedagogik vazifalari
		1
		2
		3
		4
		1
		2
		3
		1

		2
		3
		4

2. Harakat faoliyatlariga o'rgatish jarayoni samaradorligi, bilishning ko'nikma darajasiga o'tish davomiyligi quyidagilarga bog'liq.

3. Harakat faoliyatini egallash qanday uslubiy ketma-ketlikda amalga oshirilishini ko'rsating. Qisqacha tavsif bering:

4. Harakat faoliyatiga o'rgatishning dastlabki bosqichida (boshlang'ich o'rghanish bosqichi) shug'ullanuvchilar eng ko'p harakat holatlariga yo'l qo'yadilar. Ularning sabablari quyidagilardir:

5. Shug'ullanuvchilarning harakat faoliyatini o'rghanish davrida xatolarni to'g'irlashning eng keng tarqalgan qoidalarni ko'rsating:

6. Harakat ko'nikmasining shakllanishi bir qator qonuniyatlarga muvofiq ro'y beradi. Bu qonuniyatlarni sanang va ularga tavsif bering (jadvalni to'ldiring).

#### 29-jadval

Harakat faoliyatining shakllanish qonunlari	Qonunning tavsifi

7. Harakat faoliyatining shakllanishi davomida markaziy asab tizimida asab jarayonlari (qo'zg'alish va tormozlanish) kechishining uch

bosqichi galma-gal almashinadi. Bu bosqichlarga tavsif bering (jadvalni to'ldiring).

**30-jadval**

Harakat ko'nikmasi shakllanishi davrida asab jarayonlari kechishning bosqichlari tavsifi		
Birinchi bosqich	Ikkinci bosqich	Uchinchi bosqich

## **7-mavzu: Jismoniy sifatlar rivojlanishning nazariy-amaliy asoslari.**

### **7.1. Jismoniy sifatlar haqida tushuncha**

#### **Nazorat testlari**

1. Jismoniy sifatlar – bu ...

a) insonning harakat imkoniyatlarini belgilovchi, individual xususiyatlari;

b) ma'lum harakat faoliyatida, insonning har xil masaladagi ko'rsatkichlari;

v) kishi harakat qilish imkoniyatlarining ba'zi bir sifatli tomonlarini, kishining jismoniy sifatlari deb ataladi;

g) aniq natijalarda ko'rindigan, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarning majmuali qobiliyatidir;

d) harakatda ko'rsatiladigan natijalarga aytildi

2. Harakat qobiliyati – bu ...

a) harakat faoliyatining, uning har xil murakkabligiga qaramasdan tez o'zlashtirib olish ko'nikmasi;

b) insonga taaluqli bo'lgan jismoniy sifatlar;

v) kishining harakat imkoniyatlarini aniqlovchi darajasining individual xususiyati;

g) harakat faoliyatini maqsadga muvofiq ta'minlanishining individual xususiyatlari;

d) insonning ishni tez bajarishi.

3. Kishining jismoniy sifatlarining asosini ...

- a) psixik omillar;
- b) jismoniy sifatlar;
- v) harakat ko'nikmalari;
- g) harakat malakalari;
- d) morfofunksional tuzilishlar tashkil etadi.

4. Jismoniy sifatlarni rivojlanish darajasi \_\_\_\_\_ aniqlanadi.

- a) testlar bilan;
- b) individual sport natijalari bilan;
- v) razryad normativlarini belgilovchi sport bilan;
- g) tashqi yuklamaga organizmning individual javobi bilan;
- d) ish qobiliyati bilan.

Nazorat testlariga javoblariningizni jadvalga  
(javoblar varaqasiga) yozing.

**31-jadval**

Savol raqami	1	2	3	4
Javob raqami				

#### **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar.**

Har bir kishida harakat qobiliyatlari faqat o'ziga xos tarzda rivojlangan. Buning asosida turlicha tug'ma (avloddan-avlodga o'tuvchi) xususiyat yotadi. Ana shu xususiyatlarni sanab bering.

### **7.2. Kuch va uni tarbiyalash usullari asoslari**

#### **Nazorat testlari**

1. Xususiy kuch qobiliyatini qaysi bir ko'rsatkichlar ko'proq ta'riflaydi?

- a) kuch namoyon bo'lishining eng yuqori darajasi shu darajaga erishish uchun ketgan vaqtning nisbati;
- b) maksimal muskul kuchlanishining vaqt va mexanik kuchining namoyon bo'lishi;

- v) berilgan vaqt mobaynida kuchli ishlarning miqdori;
- g) absolyut kuch ko'satkichining sportchi vazniga nisbati;
- d) nisbiy kuchning ko'satichlari.

2. Izometrik tartibdag'i muskul kuchlanishi ta'rifi:

- a) muskul uzunligi o'zgarishida kuchlanishning ortishi;
- b) muskul uzunligi o'zgarishida kuchlanishning doimiyligi;
- v) muskul uzunligi o'zgarishida kuchlanishning o'zgaruvchanligi;
- g) muskul qisqarishi kuchlarining doimiyligi;
- d) muskul qisqarishi kuchlarining kamayishi.

3. Qaysi bir ish turida muskul o'zining maksimal kuchini namoyon qiladi?

- a) yenguvchi ish turida;
- b) ushlab turuvchi ish turida;
- v) yon beruvchi ish turida;
- g) yon beruvchi-yenguvchi ish turida;
- d) yenguvchi ushlab turuvchi ishlarda.

4. Kichik og'irliklar bilan mashq qilganda kuch qobiliyat bilan birgalikda, qaysi qobiliyat takomillashadi?

- a) tezkorlik;
- b) tezkor chidamlilik;
- v) tezlik va takrorlanish soniga qarab chidamlilik yoki tezkorlilik;
- g) kuch chidamliligi;
- d) o'yin chidamliligi.

5. Kuch qobiliyati tayyorgarligida keng qo'llaniladigan usul:

- a) qat'iy tartiblashtirilgan mashq usuli;
- b) o'yin va musobaqa uslubi;
- v) aylanma trenirovka uslubi;
- g) kombinatsiyalashgan uslublar;
- d) qo'shimcha mashqlar bilan ta'sir etish uslubi.

6. Sportchining kuch tayyorgarligi vazifasi o'z ichiga:

- a) kuch qobiliyatlariga maxsus tayyorlash vazifasi;
- b) optimal xolda mushaklarni «kuch topografiyasi»ni tashkil toptirish vazifasi;
- v) mushaklar massasini boshqarish vazifasi;

- g) umumiy va maxsus kuch tayyorgarligiga qaratilgan vazifalar;
- d) umumiy kuch tayyorgarligiga qaratilgan vazifalar.

7. Quyida ko'rsatilgan mashqlarni ko'p sport turlarida kuch tayyorgarligi vositasi sifatida ishlatib bo'lmaydi:

- a) musobaqa mashqlari;
- b) musobaqa mashqlarining mashg'ulot shakllari;
- v) maxsus tayyorgarlik mashqlari;
- g) umumiy tayyorgarlik mashqlari;
- d) yondoshtiruvchi mashqlar.

8. Shaxsiy kuch qobiliyatini rivojlantirish darajasi uni rivojlanishga... ko'proq saqlanadi:

- a) imkoniyatlarni ko'proq ishlata bilishni oshirish;
- b) mushaklar va mushaklar ichidagi koordinatsiyasini yaxshilash;
- v) almashish jarayonini faollashtirish;
- g) mushaklar tizimini o'zgartirish;
- d) nafas olish jarayonini tezlashtirish.

9. Shaxsiy kuch qobiliyatini tarbiyalashdagi «ekstensiv» uslublar nima bilan xarakterlanadi?

- a) takrorlashning minimal sonida og'irlikni ko'paytirish;
- b) kichik og'irlikda takrorlash sonini ko'paytirish;
- v) izometrik kuchlanishdan foydalanish;
- g) og'irlik bilan seriyali mashqlarni bajarish, bir seriyada 10 – 15 marta takrorlash;
- d) dinamik kuchlanish usullari.

10. Katta trenirovka siklini qaysi davrlarida kuchni oshirish uchun «ekstensiv» uslublardan keng foydalilanadi?

- a) o'tish davrida;
- b) musobaqalarga bevosita tayyorgarlik davrida;
- v) maxsus tayyorgarlik bosqichida;
- g) umumtayyorgarlik bosqichida;
- d) asosiy musobaqalar davrida.

Nazorat testlariga javoblarlingizni javdalga (javoblar varaqasiga) yozing.

**32-jadval**

Savol raqami	1	2	3	4	5	6	7	8
Javob raqami								

### **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar**

Jadvalning ikkinchi ustunida turli kuch qobiliyatlari ko'rsatilgan, uchunchi ustunida esa betartib holda ularning ta'riflari keltirilgan. Har bir atamaga (tushunchaga) uchinchi ustundan to'g'ri ta'rifni topish xamda javob raqamini jadvalning birinchi ustuniga yozish kerak.

**33-jadval**

Javob raqami	Atama (tushuncha)	Ta'rif
1	Kuch	1. Ancha katta tezlikda bajariladigan, ammo, odatda, eng katta ko'rsatkichga yetmaydigan mashqlarda mushaklarning zaruriy, ko'pincha, maksimal quvvat bilan amalga oshiriladigan eng so'nggi darajaga yetmagan zo'riqishi.
	Kuch qobiliyatlari	2. Turli kattalikdagи mushak kuchlanishlarini ko'zda tutilmagan vaziyatlar yoki mushaklar ishining aralash rejimlari sharoitida aniq differensiatsiyalash qobiliyati.
	Tezlik kuch qobiliyatlari	3. Asosida «kuch» tushunchasi yotadigan muayyan harakat faoliyatida insонning turlicha namoyon bo'lish kompleksi.
	Kuch chidamliligi	4. Mushaklarning zo'riqishning dastlabki laxzasida ish uchun kuchlanishining tez rivojlanish qobiliyati.
	Portlash kuchi	5. Nisbatan davomli katta ko'rsatkichli zo'riqishlari tufayli paydo bo'ladigan toliqishga qarshi turish qobiliyati.

	Start kuchi	6. Insonning mushak kuchlanishi (zo'ri-qishi) hisobiga tashqi qarshilikni yengish yoki unga qarshilik ko'rsatish qibiliyati.
	Tutashtiruv-chi kuch	7. Insonning harakat faoliyatini bajarish davomida imkonи boricha qisqa vaqt mobaynida maksimal ko'rsatkichlarga erisha olish qobiliyati.
	Kuch chaqqonligi	8. Mushaklarning ularning qisqarishi boshlangan sharoitda ish uchun kuchlanishini tez o'stirish qobiliyati.

2. Kuch qobiliyatlarini namoyon bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab o'ting.
3. Kuch qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy vazifalarini kursating:
4. «Kuch qobiliyatlarini tarbiyalash vositalari» jadvalini to'ldiring.

34-jadval

Kuch qobiliyatlarini tarbiyalash vositalari	
Asosiy vositalar	Qo'shimcha vositalar
1.	1.
2.	
3.	2.
4.	
5.	3.

5. «Kuchni tarbiyalash usullari va ularning ta'rifi» jadvalini to'ldiring.

35-jadval

Kuchni tarbiyalash usullari	Usulning ta'rifi

6. Jadvalda ko'rsatilgan kuch qobiliyatlarini tarbiyalashda qo'llaniladigan og'irlashtirilgan buyumlar vazni va mashqlarni takrorlash miqdorini ko'rsating.

**36-jadval**

Kuch qobiliyatini rivojlantirishdagi yo'nalishlar	Og'ir buyumlar vazni maksimumdan (%)	Mashqlar takrori miqdori
Maksimal kuchning ko'proq rivojlanish		
Bir vaqtning o'zida mushaklar massasining ko'proq rivojlanish hamda maksimal kuchning o'sishi		
Tana massasi tarkibida yog' miqdorining kamayishi va kuch chidamlilikni takomillashtirish		
Kuch chidamlilikni takomillashtirish va mushaklar hajmini oshirish		
Og'ir buyumlar bilan bajariladigan harakatlar tezligini takomillashtirish. «Portlash kuchi» va harakat apparatining reaktiv qobiliyatini takomillashtirish		

7. Kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan aylanma mashg'ulotlar uchun mashqlar kompleksini tuzing va kataklarga (uslubiy jihatdan tog'ri ketma-ketlikda) bu mashqlar nomini yozib chiqing.

**37-jadval**

1	2	3	4
8	7	6	5

8. Kuch qobiliyatlarining rivojlanish darajasini aniqlash uchun qo'llaniladigan nazorat mashqlarini (testlarni) sanab bering.

### **7.3. Tezkorlik qobiliyatları va ularni tarbiyalash uslubiyati asoslari Nazorat testlari**

1. Harakat reaksiyasining latent vaqtı, ayrim harakatlarni belgilovchi va mashg'ulot jarayoniga ...

- a) tezkorlik qobiliyatining bir-biriga bevosita bog'liq ko'rsatkichidir;
- b) tezkor chidamlilik ko'rsatkichlari;
- v) tezkorlik qobiliyatining rivojlantirishni tarkibiy qismlari;
- g) tezkorlikning namoyon bo'lish shakllari;
- d) tezkorlikning namoyon bo'lish elementlari.

2. Mashg'ulot jarayonida harakat tezkorligini belgilovchi va mashg'ulot jarayoniga ta'sir etuvchi bosh omillardan:

- a) ruhiy holat, markaziy asab omillari, maxsus chidamlilik;
- b) asab jarayonlarining qo'zg'aluvchanligi, harakat malakasi;
- v) harakat reaksiyasining vaqtı va harakat tezligiga bog'liq bo'lgan, ichki jarayonlarning tezkorligini belgilovchi omillar;
- g) muskul kuchi, harakat texnikasi markaziy asab tizimining xususiyati;
- d) murakkab harakat reaksiyasining vaqtı.

3. Keltirilgan qaysi bir tushuncha tezkorlikni aniqroq belgilaydi?

- a) minimal vaqt oralig'iда ko'p harakat bajarish qobiliyati;
- b) qandaydir ish samaradorligini pasaytirib yuborishni bajarish qobiliyati;
- v) ekstremal harakat qobiliyati, ichki jarayonlardagi harakat tezkorligini ta'minlay olish harakati;
- g) og'irliliklarsiz harakatlarni tez va tezlanish bilan bajara olish qobiliyati;
- d) harakatni tez bajarish qobiliyati.

4. Harakat tezkorligini tarbiyalashning asosiy uslubi nima?

- a) oraliq uslubi;
- b) musobaqa uslubi;
- v) o'yin uslubi;
- g) qat'iy reglamentlashtirilgan mashq uslubi;
- d) o'zgaruvchan mashqlar uslubi.

5. Siklik turdag'i tezkor mashqlarning bajarilish chegarasi qanday bo'lish zarur?

- a) 50 soniyagacha;
- b) 30 – 10 soniyagacha;
- v) 20 soniyagacha;
- g) 30 – 10 soniyagacha;
- d) 5 – 9 soniyagacha.

6. Malakali sportchilarning mashg'ulotida «tezkorlik turg'unligi»ga qarshi qanday ish olib boriladi?

- a) «tezkorlik turg'unligi»ga qarshi tezkor kuch tayyorgarligi va maxsus mashqlar hajmini oshirish;
- b) maksimal tezlik bilan bajariladigan tezlik mashqlarini o'zgaruvchan va yengillashtirilgan sharoitda maxsus mashg'ulot paytida bajarish;
- v) lider uslubidan foydalanish;
- g) asosiy diqqat tezkor kuch sifatlarini rivojlantirishga, shu bilan birga texnikani takomillashtirish va natijaning o'sishiga baza yaratish;
- d) umuman, mashg'ulotlarni vaqtincha tashlash.

7. Mashg'ulotlarning qaysi qismida tezkorlik mashqlarini bajarish ma'qul?

- a) mashg'ulotning hamma qismida;
- b) mashg'ulot boshlanishiga yaqin, badan qizdirishdan keyin;
- v) mashg'ulotlar o'rtaida;
- g) mashg'ulot oxirida;
- d) mashg'ulotning tayyorgarlik qismida.

8. Tezkorlik mashqlari fiziologik quvvatning qaysi ishiga kiradi?

- a) maksimal quvvatga;
- b) submaksimal quvvatga;
- v) katta quvvatga;
- g) o'rtacha quvvatga;
- d) kichik quvvatga.

9. Harakat tezligini tarbiyalashning eng asosiy yo'nalish:

- a) chegaraga yaqin tezlikda mashqlarni bajarish va musobaqa mashqlarining bir qismi yoki butun vaqtini belgilovchi;

- b) tezlik turg‘unligiga yo‘l qo‘yilmaydi;
- v) harakat qobiliyatlarini yo‘naltirilgan holda rivojlantirish;
- g) shaxsiy-musobaqa mashqlaridan to‘liq foydalanish;
- d) tezkor-kuch mashqlari.

Nazorat testlariga javoblariningizni jadvalga  
(javoblar varaqasiga) yozing

**38-jadval**

Savol raqami	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javob raqami										

### Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

- «Tezkorlik qobiliyatlarining namoyon bo‘lish shakllari» jadvalini to‘ldiring.

**39-jadval**

Tezkorlik qibiliyatlarining namoyon bo‘lish shakllari	
Eng oddiy shakllar	Kompleks shakllar

- Jismoniy tarbiya va sportda namoyon bo‘ladigan oddiy va murakkab harakat reaksiyalariga uchtadan misol keltiring va ularni jadvalga yozing.

**40-jadval**

Oddiy harakat reaksiyalariga misollar	Murakkab harakat reaksiyalariga misollar
1.	1.
2.	2.
3.	3.

3. Harakatlar jadalligi va tezligi shakllarining namoyon bo'lishiga bog'liq bo'lgan omillarni sanab bering.
4. Tezkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy vazifalarini ko'rsating.
5. «Tezkorlik qobiliyatlarini tarbiyalash usullari va ularning tavsifi» jadvalini to'ldiring.

**41-jadval**

Tezkorlik qobiliyatlarini tarbiyalash usullari	Usulning tavsifi

6. Tezkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish vositalari uch asosiy guruhgaga bo'linadi. Mazkur mashq guruhlarini sanab bering.

7. Harakatlarning takrorlanish tezligini rivojlantirish uchun 5 ta mashqni yozing.

8. Shug'ullanuvchilarda harakatlar jadalligini tarbiyalashda tezlik to'sig'i paydo bo'lishning oldini olish uchun uslubiy yondashuv hamda yo'l-yo'riqlarni ko'rsating, shuningdek, aniq misollar (mashqlar) keltiring.

**42-jadval**

Umumiy yondashuv va yo'l-yo'riqlar	Misollar

9. «Tezkorlik qobiliyatlarining rivojlanish darajasini aniqlash uchun nazorat mashqlari (testlar)» jadvalini to'ldiring.

Nazorat mashqlari			
Oddiy va murakkab harakat reaksiyasi jadalligini baholash uchun	Yakka holdagi harakatlar tezligini baholash uchun	Turli bo‘g‘imlarda harakatlarning eng yuqori takrorlanish darajasini baholash uchun	Butun (yaxlit) harakat faoliyatida namoyon bo‘luvchi tezlikni baholash uchun

#### 7.4. Chidamlilik va uni tarbiyalash uslubiyati assoslari.

##### Nazorat testlari

1. Sportchi chidamliligining o‘lchamlari:

- a) sportchi faoliyatini belgilangan ma’lum bir shiddatda ushlab turish qobiliyatiga ketgan vaqt;
- b) charchashni dekompensirovan ko‘rinishi paydo bo‘lish belgiliga ketgan vaqt;
- v) bajarilayotgan ishning buzilish vaqt va bajarilishi;
- g) ishni maksimal shiddatda bajarish vaqt;
- d) ishni maksimal shiddatda va minimal oraliq bilan bajarish.

2. Sportchining maxsus chidamlilagini qaysi tushuncha aniq belgilaydi?

- a) maxsus chidamlilik deb ishni uzoq vaqt davomida shiddatni pasaytirasdan ushlab turish qobiliyatiga aytildi;
- b) maxsus chidamlilik deb organizmning funksional imkoniyatini maksimal jalb qilib, charchashga qarshi turish qobiliyatiga aytildi;
- v) maxsus chidamlilik deb organizmning funksional imkoniyatlar yig‘indisini maxsus mashqlarni bajarishda namoyon bo‘ladigan qobiliyatga aytildi;
- g) maxsus chidamlilik deb maxsus yuklama sharoitida charchashga qarshi tura olish qobiliyatiga aytildi;
- d) sportchining ish bajarib, charchashiga aytildi.

3. Umumiy chidamlilik deb nimaga aytildi?

- a) umumiy chidamlilik deb ish bajarish samaradorligini pasaytirmasdan o'rtacha quvvatda uzoq vaqt bajarish qobiliyatiga aytildi;
- b) umumiy chidamlilik deb ish shiddatini sezilarli darajada pasaytirmasdan uzoq vaqt bajara olish qibiliyatiga aytildi;
- v) umumiy chidamlilik deb hamma mushak apparati ishtirok etuvchi uzoq vaqtli ishda charchoqqa qarshi turish qibiliyatiga aytildi;
- g) umumiy chidamlilik deb uzoq vaqt davomida mushak ishlarini berilgan quvvat va barqarorlikda bajarish qibiliyatiga aytildi;
- d) umumiy chidamlilik bu uzoq masofaga yugurishdir.

4. Qaysi sport turlarida aerob imkoniyatlar darjasи muhim ahamiyatga ega?

- a) tezkor kuch sport turlarida;
- b) sport o'yinlarida;
- v) yakkakurash sport turlarida;
- g) siklik sport turlarida ancha-muncha davom etadigan musobaqa yuklamasida;
- d) kuch talab qiladigan sport turlarida.

5. Aerob imkoniyatlari tarbiyalash vaqtida oraliq trenirovkada ish davomiyligi qanday bo'lish lozim?

- a) kamida 20 daqiqa;
- b) 1,5 – 2 daqiqa;
- v) 20 soniyadan to 2 daqiqagacha;
- g) 5 – 6 daqiqa;
- d) 7 – 10 daqiqa.

6. Chidamlilikning qaysi turlari sportchi chidamlilikni maxsus tomoniga kiradi:

- a) aerob tipdagи chidamlilik;
- b) lokal yoki regional chidamlilik;
- v) bir maromdagи shiddatli ishlardagi chidamlilik;
- g) sprint, stayer, kuch va boshqa tipdagи chidamliliklar;
- d) suzish, yugurishdagi chidamliliklar.

7. Sportchi musobaqa chidamlilikni tarbiyalashda qaysi uslublar xarakterli?

- a) aylanma terenirovka uslubi;
- b) aerob va anaerob rejimda interval oraliq uslublar;
- v) bir maromli va o'zgaruvchan yuklama bilan uzoq davom etadigan mashqlar uslubi;
- g) butun yaqinlashtirilgan modellashtirish;
- d) qat'iy tartiblashtirilgan mashqlar uslubi.

8. Sportchining kuch chidamlilikni tarbiyalovchi asosiy vosita:

- a) siklik sport turlaridagi mashqlar;
- b) umumtayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik mashqlari;
- v) uzoq davom etadigan mashqlar o'zgaruvchan rejimda bajarilish;
- g) musobaqaga yaqinlashtirilgan mashqlar;
- d) yakkakurash sport turlaridagi mashqlar.

9. Chidamlilikning qaysi ko'rsatkichi to'g'ridan-to'g'ri deb hisoblanadi:

- a) chegaragacha davom etadigan yugurish;
- b) kislorodni maksimal ravishda qabul qilish;
- v) anaerob almashish porogi;
- g) PWC 170 testi;
- d) kuper testi.

10. Umumiyl chidamlilikning tarbiyalash uslublari:

- a) tranzitiv uslublar;
- b) musobaqa uslubi;
- v) butun modellashtirish uslubi;
- g) takrorlash va o'zgaruvchan mashqlar uslubi;
- d) o'yin uslubi.

Nazorat testlari uchun tanlagan javoblariningizni jadvalga  
(javoblar varaqasiga) yozing

44-jadval

Savol raqami	1	2	3	4	5	6	7	8	9
Javob raqami									

## **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar**

1. Chidamlilikning namoyon etilishiga sabab bo‘lувчи omillarni sanab, ular haqida qisqacha ma’lumot bering.
2. Chidamlilikni rivojlantirishning asosiy vazifalarini sanab bering.
3. Chidamlilikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jismoniy mashqlarni bajarishda ularning organizmga beradigan yuklamalari yig‘indisining 5 ta tarkibiy qismini yozing.
4. Organizmning anaerob imkoniyatlarini oshirishga yo‘naltirilgan mashqlarni bajarish chog‘idagi ishning davomiyligini (soniya, daqiqlarda) hamda uning shiddatini (% larda) ko‘rsating.

**44-jadval**

Mashqning yo‘naltirilganligi	Mashqni bajarish davomiyligi (son, daq)	Mashq bajarish shiddati (%)
Asosan, alaktat anaerob qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradigan mashqlar		
Ham alaktat, ham laktat anaerob qobiliyatlarini barobar takomillashtirishga imkon beruvchi mashqlar		
Laktat anaerob imkoniyatlarni rivojlantirishga yordam beruvchi mashqlar		
Alaktat, anaerob va aerob imkoniyatlarni barobar takomillashtirishga imkon beruvchi mashqlar		

5. Bir mashqni yoki bitta mashg'ulot mobaynida har xil mashqlarni takrorlash oralig'idagi dam olish muddatini rivojlantirshda uning to'rtta turi mavjudligi ko'rsatiladi. Ularning nomlarini jadvalga yozing va qisqa ta'rif bering.

**45-jadval**

Dam olish oralig'i turi	Dam olish oralig'i turiga ta'rifi

6. «Umumiy chidamlilikni tarbiyalash usullari va ularning ta'rifi» jadvalini to'ldiring.

**46-jadval**

Umumiy chidamlilikning tarbiyalash usullari	Usulning ta'rifi

7. «Maxsus chidamlilikni tarbiyalash usullari va ularning ta'rifi» jadvalini tuldiring.

**47-jadval**

Maxsus chidamlilikni tarbiyalash usullari	Usulning ta'rifi

8. Chidamlilikning maxsus turlari hamda ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlarni sanab bering.

#### 48-jadval

Chidamlilikning maxsus turlari	Chidamlilikning maxsus turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar

9. Jismoniy tarbiya va sportda chidamlilikning rivojlanganlik darajasini aniqlashga yordam beradigan nazorat mashqlarini (testlarni) sanab ko'rsating.

#### 7.5. Egiluvchanlik va uni tarbiyalash uslubiyati asoslari Nazorat testlari

1. Keltirilgan qaysi bir tushuncha egiluvchanlikni belgilaydi?

a) egiluvchanlik-bu sportchining tayanch harakat apparat bo'ginlarining harakatchanlik darajasidir;

b) egiluvchanlik-tayanch harakat apparatining xususiyati bo'lib, uning zvenolarini harakatchanlik darajasini aniqlaydi;

v) egiluvchanlik-morfofunktional xususiyat bo'lib, harakatlarni katta amplitutada bajarish qobiliyatidir;

g) egiluvchanlik-jismoniy sifat bo'lib, harakatlarni maksimal imkoniyatda bajarish qibiliyatidir;

d) egiluvchanlik-qayishqoqlikni boshlovchi omildir.

2. Egiluvchanlik mashqlarining chegara darajadagi taklif qilinadigan takrorlashlar soni qanday bo'lish kerak?

a) 10 – 15 takrorlash atrofida;

b) 8 – 12 takrorlash atrofida;

v) yuzaga kelayotgan charchash tufayli, harakat amplitudasining kamayish alomati bo'yicha aniqlanadi;

g) shaxsiy ish qobiliyati bo'yicha aniqlanadi;

d) 25 – 30 takrorlash atrofida.

3. Egiluvchanlikni oshirish ko‘p hollarda nimaga bog‘liq bo‘ladi?

- a) suyaklar yuzasining shakliga;
- b) muskul va bo‘gimlarning elastikligiga;
- v) bo‘gim va paylarning fiziologik cho‘ziluvchanligiga;
- g) tashqi harakat va kunning vaqtalariga;
- d) egiluvchanlikni zapas koefitsientiga.

4. Passiv (sust) egiluvchanlik nima bilan aniqlanadi?

- a) harakatni katta amplitudada bajarish qobiliyati bilan;
- b) ma’lum bir holatni uzoq vaqt ushlab turish qobiliyati bilan;
- v) muskul kuchi yordamida keng harakat qilishga erishish qobiliyati bilan;
- g) tashqi ta’sir kuchlar yordamida harakat amplitudasini oshirish bilan;
- d) aktiv harakat bilan egilish.

5. Passiv (sust) va aktiv (faol) egiluvchanlik darajasi o‘rtasidagi farq...

- a) musobaqa harakati va erishilgan egiluvchanlik darajasi o‘rtasidagi farq;
- b) egiluvchanlikning maksimal rivojlanganlik darajasi;
- v) harakatning past amplitudasi;
- g) zaxiriy (rezerv) cho‘ziluvchanlik;
- d) egiluvchanlikni minimal rivojlanganlik darajasi.

6. Egiluvchanlik nima bilan o‘lchanadi?

- a) ma’lum poza o‘lchovlarini ushlab turish;
- b) harakatni maksimal amplitudasi, burchakli graduslarda yoki linsinali o‘lchamlarda (sm, km vah.k. belgilanadi);
- v) faol va sustegiluvchanlik o‘rtasidagi farq;
- g) egiluvchanlik zahirasi bilan;
- d) harakat amplitudasi o‘lchamlari bilan.

7. Egiluvchanlikni tarbiyalashning eng kerakli yosh davrlari qaysi?

- a) 10 yoshgacha;
- b) 7 – 11 yosh;
- v) 11 – 14 yosh;
- g) 14 – 16 yosh;
- d) 16 – 18 yosh.

8. Mashg'ulotning qaysi qismida, egiluvchanlikni tarbiyalash bo'yicha yo'naltirilgan mashqlarni qo'llash maqsadga muvofiq:

a) Mashg'ulotining hamma qismida (umumiy badan qizdirishdan keyin);

b) tayyorgarlik qismida;

v) asosiy qismida;

g) yakunlovchi qismida;

d) kirish qismida.

9. Egiluvchanlikni ko'rsatish nimalarga bog'liq?

a) kunning vaqtlariga, issiq sovuqligiga, yoshiga, jinsiga, jismoniy tayyorgarlikka;

b) sportchining gavdasiga, muskullarning egiluvchanligiga;

v) sportchining asab tipiga;

g) sportchining kayfiyatiga;

d) sport turiga.

10. Egiluvchanlik koeffitsienti deganda nima tushuniladi?

a) harakat amplitudasining o'lchamlari;

b) faol egiluvchanlik;

v) sust egiluvchanlik;

g) faol va sust egiluvchanlik o'rtaсидagi farq;

d) muvozanat saqlashdagi egiluvchanlik.

Nazorat testlari uchun tanlagan javoblariningizni jadvalga  
(javoblar varaqasiga) yozing.

**49-jadval**

Savol raqami	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Javob raqami										

### **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar**

1. Egiluvchanlikning namoyon etilishiga sabab bo'luvchi omillarni sanab o'ting.

2. Egiluvchanlikni rivojlantirishning asosiy vazifalarini sanang.

3. Jadvalga faol va nofaol egiluvchanlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi mashqlardan 5 tadan yozing.

**50-jadval**

Faoil egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar	Nofaoil egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar

4. Egiluvchanlikni rivojlantirishning asosiy usullarini sanab bering.

5. «Egiluvchanlikning rivojlantirishning darajasini aniqlash uchun nazorat mashqlari (testlari)» jadvalini to‘ldiring.

**51-jadval**

Harakatchanlikni baholash uchun nazorat mashqlari				
Yelka bo‘gimlarida	Umurtqa pog‘onasida	Tos-son bo‘g‘imlarida	Tizza bo‘g‘imlarida	Boldir-kaft bo‘g‘imlarida

### 7.6. Harakat muvozanat qobiliyatları hamda ularni tarbiyalash asoslari

#### Nazorat testlari

1. Berilgan ifodalarning qaysi biri koordinatsiya qobiliyatlarini aniq belgilaydi?

a) koordinatsiya qobiliyati-shaxsiy xususiyat bo‘lib, harakatni tez va sifatli, aniq va uyg‘un bajara olish;

b) koordinatsiya qobiliyati-harakatni aniq va harakat texnikasini umumiy takomillashgan holatda bajarishdir;

v) koordinatsiya qobiliyati-gavdaning hamma qismlarini qiyin holatda uygun, vaqt, fazoviy va kuchlanish darajasida aniq bajarishdir;

g) koordinatsiya qobiliyati-harakat vaqtini bir butun qurish va harakat shaklini o‘zgaruvchan sharoitga moslashtirib bajarish qobiliyatidir;

d) koordinatsiya qobiliyati hamma vaqt harakatning aniq bajarilishi.

2. Harakat koordinatsiya qobiliyatining yangi shakllari paydo bo'lish quyidagilardan qaysi biriga bog'liq emas?

- a) harakat ko'nikma va malakalarining zahirasiga;
- b) asab tizimining plastikligiga;
- v) takrorlash soniga;
- g) analizatorlar funksiyasining mukammalligiga;
- d) harakatning har xil variantlaridan foydalanishiga.

3. Quyidagi qaysi uslubiy yondashuv koordinatsiya zo'riqishni kamaytirishda yordam bermaydi?

- a) harakat tasavvur paydo qilishdagi dastlabki fikrlash, diqqatni bo'shashtirish vaziyatlariga qaratish;
- b) mimika muskullar ustidan nazorat;
- v) jismoni mashqni bir oz charchash holatida bajarish;
- g) mashqni erkin siltanish harakatlari bilan bajarish;
- d) yuzidan ter chiqquncha.

4. Turg'un tonik kuchlanishning sababi nimada?

- a) harakat texnikasining shakllanmaganida;
- b) tug'ma mushak gipermiotoniyasida;
- v) charchashda;
- g) stress omillar ta'sirida;
- d) psixologik omillar ta'sirida.

5. Sportchini koordinatsiyasini tarbiyalashning birinchi navbatdagi boshqaruvchi yo'nalishi:

- a) o'rganilgan harakat faoliyatining mashg'ulotda yuqori koordinatsiya qiyinchiliginи tashkil qilish;
- b) musobaqa faoliyatida ishlataladigan tipik shakllarni mustahkamlash;
- v) koordinatsiya harakatining hamma yangi shakllarini egallash qobiliyatini takomillashtirish;
- g) harakat tajribasini son jihatdan to'ldirish;
- d) koordinatsiya harakatlarini doimiy ravishda oshirish

**Nazorat testlariga tanlagan javoblariningizni jadvalga  
(javob varaqasiga) yozing**

**52-jadval**

Savol raqami	1	2	3	4	5
Javob raqami					

**Mustaqil ish uchun topshiriqlar**

1. Harakat muvozanat qobiliyatlarining namoyon etilishiga sabab bo‘luvchi omillarni sanab bering.
2. Muvozanat qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy vazifalarini sanang.
3. Muvozanat qibiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan 5 ta mashqni yozing.
4. Muvozanat qobiliyatlarini tarbiyalashda qo‘llaniladigan asosiy uslubiy yo‘llarni sanab bering.
5. «Muvozanat qobiliyatlarini tarbiyalash usullari va ularning ta’rifi» jadvalini to‘ldiring.

**53-jadval**

Muvozanat qobiliyatlarini tarbiyalash usullari	Usulning ta’rifi

6. Muvozanat qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun nazorat mashqlarini (testlarini) sanab bering.

## **8-mavzu: Jismoniy tarbiyada mashg'ulotlarning kirish shakllari**

### **Nazorat testlari**

1. Jismoniy tarbiyaning shakli deganda nima tushuniladi?

a) o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish uslublari;

b) o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tartibga tushirish;

v) ta'lif vazifalarini yechish uchun qo'llaniladigan, birlashtirilgan yo'llar, maqsadga erishish uslublari;

g) o'quv mashg'ulotlarining turlari;

d) o'quv tarbiya to'g'risida suhbatlar.

2. Shug'ullanuvchilami tashkil qilish xususiyati va rahbarlik qilish bo'yicha jismoniy tarbiya ikki guruhga bo'linadi:

a) jismoniy tarbiya darslari va sport mashg'ulotlari;

b) dars va mashg'ulotlarni shakllari;

v) o'qituvchi (murabbiy) tomonidan o'tkaziladigan va mustaqil shug'ullanuvchilar mashg'uloti;

g) ta'lif va sog'lomlashtirish jismoniy mashg'ulotlari;

d) o'quvchi va talabalarning alohida mashg'ulotlari.

3. Umumiy o'rta ta'lif maktablaridagi jismoniy tarbiyaning asosiy shaklini ko'rsating:

a) jismoniy madaniyat darslari;

b) kun tartibidagi jismoniy sog'lomlashtirish tadbirlari;

v) ommaviy sport va sayyoqlik tadbirlari;

g) trenirovka va sport sho'balar;

d) mustaqil mashg'ulotlar.

4. Jismoniy tarbiyada keng ravishda so'z va ko'rgazmalilik uslublaridan foydalaniлади. Yuqori bo'limgan «motor» zichligi quyidagilardan qaysi biriga taaluqli?

a) o'quv materiallarini mustahkamlash va takomillashtirish;

b) nazorat darslari;

q) UJT darslari;

g) yangi materiallarni o'zlashtirish darslari;

d) aralash darslar.

**Nazorat testlariga tanlagan javoblariningizni jadvalga  
(javob varaqasiga) yozing**

**54-jadval**

Savol raqami	1	2	3	4
Javob raqami				

**Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar**

1. «Jismoniy tarbiya darsining tarkibiy qismlari va ularning vazifasi (darsning tuzilish)» jadvalini to‘ldiring.

**55-jadval**

Darsning tarkibiy qismlari	Vazifasi

2. Jismoniy tarbiya darsining asosiy yo‘naltirilganlik belgisiga ko‘ra farqlanuvchi turlarini jadvalga yozing va ularning asosiy yo‘nalishni (vazifasini) ko‘rsating.

**56-jadval**

Dars turi (tipi)	Darsning yo‘nalish (vazifasi)

3. Jismoniy tarbiya darsining hal etiladigan masalalar belgisiga ko‘ra quyidagi turlari mavjud:

4. «Jismoniy mashqlar bilan darsdan tashqarida shug‘ullanish shakllari» jadvalini to‘ldiring.

### 57-jadval

Shug‘ullanishning darsdan tashqari shakllari	

### 9-mavzu: Jismoniy tarbiyada rivojlantirish va nazorat

#### Nazorat testlari

1. Jismoniy tarbiyada rejalashtirish bu –

a) rejalalashtirish va pedagogik nazorat tashkil qilishning bir-biriga bog‘langan sharoiti va jismoniy tarbiya jarayonini maqsadga muvofiq tuzilishidir;

b) jismoniy tarbiyada obyektiv qonuniyatlarni bilsin, ularning ilmiy-uslubiy holati tamoyillarini ko‘rsatuvchi, shu soha bo‘yicha pedagogik rejalashtirish va nazoratini kerakli yo‘naltiruvchi negizidir;

v) shug‘ullanuvchilarning aniq kontingenti va shu davrga nisbatan uslubiy tomondan isbotlangan holda mashg‘ulotlarning vazifalarini, mazmunini tuzatish va tashkil qilishdir;

g) darsning jarayoni ma’lum kriteriyalar va qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishda kerakli shakllar bilan tartibga tushirish;

d) o‘qituvchi (trener) faoliyatini tartibga tushirish va ta’lim maqsadini amalga oshirish.

2. Jismoniy tarbiyada pedagogik nazorat bu –

a) bir qator tadbirlar tizimi orqali natijalarini aniqlash, ularga bo‘lgan rahbarlikni baholashni ko‘rsatadi;

b) didaktik jarayonning har tomonlama natijalarini aniqlash;

- v) harakat ko'nikma va malakalarini (belgilangan o'lchamlar) va maxsus bilimlarini aniq baholash;
- g) pedagogik jarayonni ob'ektiv ravishda baholash;
- d) darsda qo'llaniladigan vosita, usul va ko'nikma malakasini baholash.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun jismoniy tarbiya dasturi va o'quv rejasini kim ishlab chiqadi?
- a) muktab direktori;
  - b) o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari;
  - v) jismoniy tarbiya o'qituvchisi;
  - g) davlat tashkilotlari (vazirliklar, qo'mitalar);
  - d) pedagogik kengash.
4. Davlat o'quv muassasalarida jismoniy tarbiyani ko'p qirrali ish sifatida amalga oshirishning asosiy hujjati quyidagilardan qaysi biri hisoblanadi?
- a) jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv dasturi;
  - b) o'quv rejas;
  - v) har darslik ish rejas;
  - g) pedagogik nazorat va hisobot rejas;
  - d) dars konspekti.
5. Quyidagi hujjatlardan qaysi biri jismoniy tarbiya darslarida asosiy o'rinn tutadi?
- 1) dars o'quv tarbiyaviy vazifasini aniq ko'rsatuvchi hujjatlar;
  - 2) jismoniy tarbiyaning nazariy bilimlari;
  - 3) jismoniy tarbiyaning asosiy vositalarini har bir darsda yuklama kengligida ko'llash usullari.
- 4) Nazorat mashqlarining (testlarning) qaysi biri quyidagilarni o'z ichiga oladi?
- a) jismoniy tarbiya o'quv dasturi;
  - b) o'quv rejas;
  - v) har darslik ish rejas;
  - g) jismoniy tarbiya bo'yicha umumiy ish rejas;
  - d) darslik.

6 Dars oxirida o'quvchilar organizmini yuklamaga nisbatan reaksiyasi quyidagi nazoratlarning qaysi biri bilan nazorat qilinadi?

- a) joriy;
- b) oraliq;
- v) yakuniy;
- d) haftalik.

Nazorat testlari uchun tanlagan javoblariningizni jadvalga  
(javob varaqasiga) yozing

**58-jadval**

Savol raqami	1	2	3	4	5	6
Javob raqami						

#### **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar**

1. «Jismoniy tarbiyada rejalashtirish turlari va ularning muddati» jadvalini to'ldiring.

Rejalashtirish turi rejalashtirish muddati

**59-jadval**

Rejalashtirish turi	Rejalashtirish muddati

2. «Jismoniy tarbiyada rejalashtirishga qo'yiladigan talablar» jadvalini to'ldiring.

**60-jadval**

Rejalashtirishga talablar	Talabning maqsadi

3. Jismoniy tarbiyada rejalashtirishning uslubiy ketma-ketligini yozing.

4. Jismoniy tarbiyada rejalashtirishning asosiy hujjatlari va ularning ta'rifi jadvalini to'ldiring.

61-jadval

Rejalashtirishning asosiy hujjatlari	Rejalashtirish hujjatining ta'rifi

5. «Jismoniy tarbiyada pedagogik nazorat turlari va ularning ta'rifi» jadvalini to'ldiring.

62-jadval

Pedagogik nazorat turlari	Nazorat turlarining ta'rifi

6. Jismoniy tarbiya amaliyotida qo'llanadigan nazorat usullarini yozing.

7. Jismoniy tarbiyada qayd etish turlari, uni o'tkazish muddatlari va davriylik jadvalini to'ldiring.

63-jadval

Qayd etish turlari	O'tkazish muddatlari

## **10-mavzu: Ilk va muktabgacha yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash**

### **Nazorat testlari**

1. Quyidagilarning qaysi biri eng kichik yoshidagi va muktabgacha yoshidagi bolalar uchun jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari bo'lib hisoblanadi:

- a) jismoniy mashqlar;
- b) tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari;
- v) gigiyenik omillar;

g) tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari, gigiyenik omillar va jismoniy mashqlar.

2. Muktabgacha bolalar muassasalarida jismoniy mashg'ulotlarning mavzusini va shakllarini ...

- a) jismoniy tarbiyaning umumiy rejasi aniqlaydi;
- b) jismoniy tarbiya dasturi aniqlaydi;
- v) bolalar ota-onasining talabi bilan aniqlanadi;
- g) tarbiyachi va jismoniy tarbiya bo'yicha instruktor-uslubchilarning shaxsiy kasbi, pedagogik tajribasi bo'yicha aniqlanadi;
- d) tematik rejalar bo'yicha aniqlanadi.

3. Eng kichik va muktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash uchun birinchi navbatdagi diqqatni quyidagilarni qaysi biriga qaratiladi?

- a) tezkorlik sifatlariga;
- b) harakat uyg'unligiga;
- v) egiluvchanlik sifatiga;
- g) kuch va kuch sifatlariga;
- d) umumiy chidamliligiga.

4. Muktabgacha yoshdagi bolalar o'z gavdasini boshqarishga yordamlashish uchun qanday murakkab harakatlarni bajarish kerak?

- a) syjetsiz harakatli o'yinlarni;
- b) sport mashqparining soddallashtirilgan shakllarini;
- v) asosiy gimnastika mashqlarini;
- g) syujetli harakatli o'yinlarni;
- d) imitatsion o'yinlarni.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qaysi yoshdan boshlab soddalashtirilgan sport mashqlaridan foydalilanadi?

- a) ikki yoshidan boshlab;
- b) uch yoshdan boshlab;
- v) bir yoshdan boshlab;
- g) to'rt yoshdan boshlab;
- d) besh yoshdan boshlab.

6. Bolalar bog'chasidagi 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lган bolalar uchun jismoniy mashqlar mashg'ulotlarning asosiy shaklini ko'rsating.

- a) dars tipidagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari;
- b) dars tipida bo'lmanan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari;
- v) jismoniy daqiqa va pauzalar;
- g) sport soati;
- d) o'yin shaklidagi mashg'ulotlar.

7. 3 – 4 yoshidagi bolalar bog'chasidagilar uchun dars tipidagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari qancha vaqt davom etadi?

- a) 5 – 10 daqiqa;
- b) 15 – 20 daqiqa;
- v) 25 – 35 daqiqa;
- g) 35 – 40 daqiqa;
- d) 40 – 45 daqiqa.

8. 5 – 6 yoshidagi bolalar bog'chasidagilar uchun dars tipidagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari qancha vaqt davom etadi?

- a) 15 – 25 daqiqa;
- b) 25 – 30 daqiqa;
- v) 30 – 35 daqiqa;
- g) 40 – 45 daqiqa;
- d) 60 daqiqa.

9. Maktabgacha bolalar muassasalarida har xil harakat mazmuniga ega bo'lган harakatlari o'yinlar necha yoshdan boshlab o'tkaziladi?

- a) 2 – 3 yoshdan;
- b) 3 – 4 yoshdan;
- v) 4 – 5 yoshdan;
- g) 5 – 6 yoshdan;
- d) 3 – 6 yoshdan.

10. Maktabgacha bolalar muassasalarida jismoniy daqiqalar va pauzalar qaysi maqsadda o'tkaziladi?

- a) bolalarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash;
- b) bolalarga yangi harakatlarni o'rgatish;
- v) bolalar tomonidan oldin o'rgangan harakatlarni mustahkamlash;
- g) bolalar charchaganini ogohlantirish va dam olish;
- d) bolalarga ta'lif berish.

11. Dars tipidagi mashg'ulotlarning yakuniy qismida yuklamani asta-sekin pasaytirish uchun qanday jismoniy yuklamalar beriladi?

- a) yurish, diqqatni bo'lish uchun topshiriq, nafas mashqlari;
- b) qisqa vaqtli o'rta sur'atda yugurish va yugurish mashqlari;
- v) har xil sakrash mashqlari;
- g) uyin mashqlari;
- d) muvozanat saqlash mashqlari.

12. Jismoniy yuklamalar bolalarning tomir urish ko'rsatkichi bilan aniqlanadi. Dars tipidagi jismoniy mashg'ulotlarda (harakatli o'yinlarni hisobga olmaganda), u quyidagi foizdan tezlaishib ketmasligi kerak:

- a) 10 – 15%;
- b) 20 – 25%;
- v) 25 – 40%;
- g) 50%;
- d) 80%.

13. 3 – 4 yoshli bolalarda mashg'ulot samaradorligini quyidagicha, yurak qon tomir urishi soni belgilaydi:

- a) daqiqasiga 90 – 105;
- b) daqiqasiga 115 – 125;
- v) daqiqasiga 130 – 140;
- g) daqiqasiga 145 – 155;
- d) daqiqasiga 150 – 160 marta.

14. 5 – 7 yoshli bolalarda mashg'ulot samaradorligini quyidagicha yurak qon tomir urish soni belgilaydi:

- a) daqiqasiga 100 – 110;
- b) daqiqasiga 110 – 120;
- v) daqiqasiga 120 – 130;

- g) daqiqasiga 140 – 150;  
d) daqiqasiga 160 – 165 marta.

Nazorat testlari uchun tanlagan javoblariningizni jadvalga  
(javob varakasnga) yozing

**64-jadval**

Savol raqami	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
Javob raqami														

### **Mustaqil nsh uchun topshiriqlar**

1. «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining vazifalari» jadvalini to‘ldiring.

**65-jadval**

Jismoniy tarbiyaning vazifalari		
Sog‘lomlashtirish vazifasi	Ta’limiy vazifasi	Tarbiyaviy vazifasi

2. Biologik belgilarga ko‘ra maktabgacha yoshning quyidagi davrlari mavjud:

3. «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan jismoniy mashg‘ulotlarning asosiy shakllari hamda ularning ta’rifi» jadvalini to‘ldiring.

**63-jadval**

Jismoniy mashg‘ulotlarning asosiy shakllari	Jismoniy mashg‘ulotlar shakllarining ta’rifi

4. «Ilk va maktab yoshidagi bolalar bilan o'tkaziladigan dars tipidagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining tuzilish (qismlari, vazifalari, mazmuni)» jadvalini to'ldiring.

**63-jadval**

Darsning asosiy qismlari	Darsning har bir qismida yechiladigan vazifalar	Darsdagi har bir qismning asosiy mazmuni

### **11-mavzu: Maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash**

#### **Nazorat testlari**

1. Maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi jismoniy tarbiya tizimining umumiy tamoyillariga asoslangan. Quyidagilar ichidan shu tamoyillarni ko'rsating.

a) shaxsni har tomonlama rivojlantirish tamoyili, jismoniy tarbiyaning mehnat va harbiy amaliyot bilan bog'liqlik tamoyili, sog'lomlashtirishga yo'naltirilganlik tamoyili;

b) uzlusizlik tamoyili, yuklama va dam olishni tizimli almashtirish tamoyili;

v) jismoniy tarbiyaning yoshiga yo'naltirilgan tamoyili, mashg'u-lotlarilarni siklik tuzish tamoyili;

g) rivojlanuvchi trenirovka ta'sirini asta-sekin oshirib borish tamoyili, yuklamalar dinamikasini moslashtirib tanlatish tamoyili;

d) ko'rgazmalilik tamoyili.

2. Harakat faoliyati deganda nima tushuniladi?

a) har kungi hayot jarayonida, inson tomonidan bajariladigan harakat faoliyatining umumiy soni;

b) jismoniy mashqlarni shug'ullanuvchilar organizmiga ma'lum darajadagi yuklama orqali ta'siri;

v) jismoniy yuklamaning ma'lum ta'sirini hajm va shiddat o'chamlari orqali aniqlash;

g) sport mahoratini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon;

d) harakat faoliyatining kunlik me'yori.

3. Umumiy o'rta ta'lif maktablarida o'qish vaqtida sinfdan sinfga o'tish davrida harakat faolligi...

a) ozroq oshadi;

b) anchagina oshadi;

v) o'zgarishsiz qoladi;

g) ko'pincha pasayadi;

d) sust o'zgaradi.

4. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiyaning asosiy shakli quyidagilardan qaysi biri:

a) kun tartibidagi jismoniy sog'lomlashtirish tadbirlari;

b) jismoniy tarbiya darsi;

v) kuni o'zgartirilgan guruhlarda har kungi jismoniy tarbiya mashg'ulotlari;

g) umumiy jismoniy tayyorgarlik guruhi;

d) sport turlari bo'yicha sho'balar.

5. Kichik muktab yoshidagilar tezkorlik mashqlarini necha soniyada bajarishi kerak?

a) 3 – 4 soniyada;

b) 6 – 8 soniyada;

v) 15 soniyada;

g) 20 – 25 soniyada;

d) 25 – 30 soniyada.

6. Kichik muktab yoshida quyidagi usullardan qaysinisi ko'proq ishlatalidi?

a) bo'laklab o'rgatish usuli;

b) yaxlitligicha bajarish;

v) bir mashq ustiga ikkinchisini bajarish usuli;

g) standart mashqlar usuli;

d) o'zgaruvchan mashqlar usuli.

7. Kichik maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi jarayonida, iloji boricha, quyidagilardan qaysi birini qo'llamaslik kerak?

- a) chidamlilik mashqlari;
- b) harakat chastotasiga beriladigan mashqlar;
- v) nafas olishni siqadigan mashqlar va statik kuchlanish mashqlari;
- g) kuch tezkorlik mashqlari;
- d) kuch mashqlari.

8. Boshlang'ich maktab jismoniy mashg'ulotlarida quyidagi vazifalarning qaysi biriga ko'proq e'tibor beriladi?

- a) sog'lomlashtirish vazifalari;
- b) ta'lim vazifalari;
- v) tarbiya vazifalari;
- g) gavda umurtqasini tashkil toptirish vazifalari;
- d) jismoniy tarbiya vositalari bilan gavda og'irligini boshqarish vazifikasi.

9. Jismoniy tarbiya jarayonida katta yoshidagi maktab o'quvchilari birinchi navbatda quyidagilardan qaysi birini rivojlantirishga e'tibor qaratishi lozim?

- a) faol va passiv egiluvchanlikni;
- b) maksimal harakat chastotasini;
- v) kuch, kuch-tezkorlik sifatlarini;
- g) har xil turdag'i chidamliliklarni;
- d) oddiy va murakkab harakat reaksiyalarini.

10. Maktab o'quvchilari salomatligi, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik darajasiga qarab quyidagi tibbiy guruhlarga bo'linadi:

- a) sust, o'rta, kuchli;
- b) asosiy, tayyorgarlik, maxsus;
- v) salomatligida o'zgarishi yo'qlar, salomatligida o'zgarishi borlar;
- g) sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya, sport;
- d) UJT, MJT guruhlari.

11. O'quvchilar sog'lom, kasalligi bo'limgan guruhga kiritilgan bo'lsa, uning nomi nima deb ataladi?

- a) jismoniy madaniyat guruhi;
- b) asosiy tibbiy guruh;

- v) sport guruhi;
- g) sog‘lom tibbiy guruhi;
- d) tayyorgarlik guruhi.

12. O‘quvchilar sog‘lig‘ida ahamiyatsiz o‘zgarishlar bo‘lsa qaysi guruhga kiritiladi?

- a) umumiy jismoniy tayyorgarlik guruhiga;
- b) jismoniy madaniyat guruhiga;
- v) o‘rtacha tibbiy guruhga;
- g) maxsus tibbiy guruhga;
- d) sog‘lomlashtirish guruhiga.

13. O‘quvchilarni sog‘lig‘ida, salomatlilik holatida katta o‘zgarishlar bo‘lsa, katta jismoniy yuklama berish mumkin bo‘limasa, guruhning nomi nima deb ataladi?

- a) kun tartibida jismoniy sog‘lomlashtirish tadbirlari;
- b) kuni uzaytirilgan guruhlarda har kungi jismoniy tarbiya mashg‘uloti;
- v) jismoniy tarbiya darslari;
- g) uyda har xil jismoniy tarbiya mashqlari bilan shug‘ullanish;
- d) maxsus tibbiy guruh.

14. Salomatlik darajasida o‘zgarishlar bo‘lsa, ular bilan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining qaysi bir turi o‘tkaziladi?

- a) jismoniy tarbiya darsi;
- b) jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari;
- v) individual mashg‘ulotlar;
- g) UJT guruhi;
- d) individual mashg‘ulotlar.

15. Salomatligi sust o‘quvchilar bilan qaysi mashg‘ulotlarni to‘liqligicha o‘tkazish ta’qiqlanadi?

- a) gimnastik mashqlar;
- b) yengil atletika mashqlari;
- v) harakatlari o‘yinlar va kross tayyorgarligi;
- g) akrobatik mashqlar va nafasni siquvchi uzoq statik kuchlanish bilan beriladigan mashqlar;
- d) suzish mashqlari.

16. Salomatligi sust bo‘lgan bolalar yurak urishining qaysi miqdorida jismoniy mashqlar yaxshi samaradorlik beradi?

- a) daqiqasiga 90 – 10 ta;
- b) daqiqasiga 110 – 125 ta;
- v) daqiqasiga 126 – 130 ta;
- g) daqiqasiga 131 – 150 ta;
- d) daqiqasiga 151 – 160 ta;
- e) daqiqasiga 161 – 175 ta.

17. Salomatligi past bolalarni jismoniy tarbiya darslarida quyida-gicha nazorat qilinadi:

- a) tomir urishi bilan;
- b) nafas olish chastotasi bilan;
- v) bolalarni tashqi ko‘rinishidagi charchash alomatlari bo‘yicha;
- g) yuzini qizarishi bilan;
- d) tomir urishi, nafas olishi, tashqi ko‘rinishi bilan.

18. Jismoniy tarbiya darslari haftada necha marotaba o‘tkaziladi?

- a) haftada bir marta;
- b) haftada ikki marta;
- v) haftada uch marta;
- g) haftada to‘rt marta;
- d) haftada besh marta.

19. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darsining davom etish vaqtisi:

- a) 30 – 35 daqiqa;
- b) 36 – 40 daqiqa;
- v) 40 – 45 daqiqa;
- g) 50 – 55 daqiqa;
- d) bir soat.

20. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy daqiqa va jismoniy pauza qachon o‘tkazilishi lozim?

- a) o‘quvchilarda charchashning birinchi ko‘rinishlari bilan umumiy ta’lim darslari vaqtida;
- b) jismoniy tarbiya darslarida bir mashqdan ikkinchi mashqqa o‘tishda;

v) sport sho'balarida va UJT guruhlarida faol dam olish vositasi sifatida;

g) har bir dars tugagandan keyin;

d) 5 soat darsdan keyin.

21. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy daqiqa va pauzani qanday asosiy maqsadda o'tkaziladi?

a) jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish;

b) charchashning oldini olish, aqliy va jismoniy ishlarni oshirish, umurtqaning buzilishini oldini olish;

v) Salomatligini mustahkamlash va harakat madaniyatini takomillashtirish;

g) harakat madaniyatini yaxshilanishiga yordamlashish;

d) ishlab chiqarish unumдорligini oshirish maqsadida.

22. Kichik maktab yoshidagi bolalar bilan uy vazifasini bajarishda qancha vaqt dan keyin jismoniy daqiqa va pauza o'tkaziladi?

a) 20 – 25 daqiqa;

b) 30 – 35 daqiqa;

v) 36 – 40 daqiqa;

g) 40 – 45 daqiqa;

d) bir soat.

23. Akademik litsey va kollejlarda jismoniy tarbiya qaysi yillarda o'tkaziladi?

a) birinchi o'quv yilida;

b) birinchi va ikkinchi o'quv yilida;

v) birinchi, ikkinchi, uchinchi o'quv yillarida;

g) ikkinchi, uchinchi o'quv yillarida;

d) ta'limning hamma davrlarida.

24. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi jismoniy tarbiya darslari qanday vazifalar yechiladi?

a) ta'lim;

b) tarbiyaviy;

v) sog'lomlashtirish;

g) ta'lim, tarbiyaviy, sog'lomlashtirish;

d) jismoniy mashqlar.

25. Jismoniy tarbiya darslarida optimal holda necha vazifa yechiladi?

- a) bitta vazifa;
- b) ikki-uch vazifa;
- v) uch vazifa;
- g) to'rt vazifa;
- d) besh-olti vazifa.

26. Darsning asosiy qismida e'tibor beriladigan asosiy vositalar:

- a) oldindan o'rgatilgan harakat ko'nikmasi va malakalarini mukamallashtirish va takomillashtirish;
- b) harakat ta'sirini yaxshisini yoki elementlarini o'rganish;
- v) chidamlilikni talab qiluvchi mashqlarni bajarish;
- g) kuchni talab qiluvchi mashqlarni bajarish;
- d) egiluvchanlikni talab qiluvchi mashqlarni bajarish.

27. Tezkorlik, tezkor-kuchlilik, harakat uyg'unligini bajarish darsning qaysi qismida olib boriladi?

- a) kirishda;
- b) tayyorgarlik davrida;
- v) asosiy qismning borishida;
- g) asosiy qismning o'rtaida yoki oxirida;
- d) asosiy qismning oxirida.

28. Maktab darslarida darsning asosiy qismi, asosan, qancha vaqt o'tkaziladi?

- a) 15 – 18 daqiqa;
- b) 20 daqiqa;
- v) 25 – 30 daqiqa;
- g) 30 – 35 daqiqa;
- d) 40 daqiqa.

29. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsning yakunlovchi qismiga qancha vaqt ajratiladi?

- a) 10 daqiqa;
- b) 7 daqiqa;
- v) 3 – 5 daqiqa;
- g) 1 – 2 daqiqa;
- d) 6 – 7 daqiqa.

30. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, darsning asosiy qismida o‘quvchilar emotSIONalligini va o‘tilgan dars materialini takomillashtirish uchun qanday yakunlaydi?

- a) egiluvchanlik mashqini berish bilan;
- b) harakatli o‘yinlar va o‘yin topshiriqlarini berish bilan;
- v) o‘quv video tasmalarini ko‘rsatish bilan;
- g) harakat uyg‘unligiga beriladigan mashqlar bilan;
- d) tezkorlik beriladigan mashqlar bilan.

31. Jismoniy tarbiya dasrlarida o‘quvchilar organizmiga jismoniy yuklamalarning ta’siri ostida ish qobiliyati o‘zgaradi. Darsning qaysi qismida funksional ish qobiliyatining turg‘un fazasi katta bo‘lmagan o‘zgarishlar bilan yuqoriga va pastga tebranib turadi?

- a) kirish;
- b) tayyorgarlik;
- v) asosiy;
- g) yakuniy.

32. O‘rta maxsus o‘quv yurtlarida jismoniy pauzalar qanday maqsad bilan o‘tkaziladi?

- a) charchashni oldini olish va ish qobiliyatini qayta tiklash uchun;
- b) kasallikni oldini olish uchun;
- v) jismoniy tayyorgarlik darajasini ko‘tarish uchun;
- g) harakat ko‘nikmasi va malakasini takomillashtirish uchun;
